

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI

ABDULQOHIR JURJONIY

العوامل المئة في النحو

NAHVDA

YUZTA OMIL

(ARAB TILI GRAMMATIKASIGA OID QO'LLANMA)

«Toshkent islom universiteti»
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2014

UO'K: 811.411.21

81.2(BAA)-2

J-91

Jurjoniy, Abdulqohir

Nahvda yusta omil: arab tili grammatikasiga oid qo'llanma / A.Jurjoniy; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2014. – 116 b.

KBK 81.2(BAA)-2

“Arab tili” fanini o'zlashtirishga mo'ljallangan ushbu qo'llanma Toshkent islom universitetining “Sharq tillari” kafedrasida tayyorlandi. Qo'llanma “Arab tili” fanidan boshlang'ich bilimga ega bo'lgan talabalar uchun mo'ljallangan. Qo'llanmada tilning eng muhim elementlaridan hisoblangan, jumla tarkibidagi so'zlarning so'nggi harakatlari o'zgarishi (e'robi)ga sabab bo'luvchi 100 ta ko'makchi, yuklama va mazmunga ta'sir qiladigan morfologik so'zlarning ko'p ishlatiladigan ma'nolari hamda ularning alohida xususiyatlari batafsil bayon etilgan.

Mazkur qo'llanma “Arab tili” fani asosiy til sifatida, shuningdek, qo'shimcha sharq tili sifatida o'qitiladigan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun hamda boshlang'ich ta'lim olgan mustaqil o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan. Shu bilan bir qatorda arab tili faniga oid qo'shimcha adabiyot sifatida tavsiya etiladi.

Tuzuvchilar: N.Mullasodiqova, H.Bobojonov

Mas'ul muharrir: fil.f.d., prof. Z.M.Islomov

Taqrizchilar: A.B.Abdullaev, TIU, Sharq tillari kafedrası dotsenti, fil.f.n., R.Matibaeva, TIU, Sharq tillari kafedrası dots.v.b., t.f.n., Z.Shakirova, TIU, Sharq tillari kafedrası katta o'qituvchisi, t.f.n., O.Musaev, TIU, Sharq tillari kafedrası katta o'qituvchisi.

Tashqi taqrizchilar: B. Begmatova, ToshDSH, arab filologiyasi kafedrası dotsenti,

A. Boynazarova, TAQI, falsafa kafedrası dotsenti, fal.f.n.

Qo'llanma O'quv-uslubiy kengashning 02.01.2014 y. 5-son qarori bilan tasdiqlangan.

ISBN 978-9943-4452-8-4

© «Toshkent islom universiteti»

nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014.

© N.Mullasodiqova, H.Bobojonov, 2014.

Mundarija

So'zboshi.....	5
Abdulqohir Jurjoniý	7
Nahvda yuzta omil.....	38
Birinchi tur	39
Ikkinchi tur	47
Uchinchi tur	49
To'rtinchi tur	50
Beshinchi tur	53
Oltinchi tur.....	55
Yettinchi tur	57
Sakkizinchi tur.....	59
To'qqizinchi tur	60
O'ninchi tur	63
O'n birinchi tur	68
O'n ikkinchi tur.....	70
O'n uchinchi tur.....	72
Qiyosiy omillar	75
1. To'liq fe'l	75
2. Masdar	76
3. Aniq darajali sifatdosh	77

4. Majhul darajali sifatdosh	78
5. Sifatdosh ma'nosidagi sifat	79
6. Izofa birikmasining birinchi bo'lagi – aniqlanmish.....	79
7. To'liq ot	80
Ma'naviy omillar	81
Nahvdagi yuzta omil tasnifi.....	82
Samoiy omillar tasnifi.....	83
Qiyosiy omillar tasnifi	84
Ma'naviy omillar	85
Birdan ortiq ma'noga ega ko'makchilar	85
Birdan ortiq ma'noga ega yuklama	88
Fe'llar anglatadigan ma'nolar	88
Izohlar	91

SO'ZBOSHI

Bugungi kunda respublika miqyosida ta'lim sohasida katta islohotlar olib borilmoqda. Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash bilan bir qatorda mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, chet tillarini mukammal biladigan va bermalol muloqotga kirishadigan qilib tarbiyalash ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasiga aylandi.

Boshqa xorijiy tillar qatorida arab tilini o'rganish va o'rgatish masalasi ham davr talablaridan biri bo'lib qolmoqda. Zero, Prezidentimiz: «qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, ajdodlarimizning bebaho merosini chuqurroq o'zlashtirish masalalarini asosiy vazifalardan biri», deb ta'kidlaganlar.

Ushbu taqdim etilayotgan qo'llanma arab tilini o'rganayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Unga ajdodlarimizdan Abdulqohir Jurjoniyniing “العوامل المائة في النحو” – “Nahvda yuzta omil” risolasining Toshkent islom universiteti “Nodir manbalar xazinasini”da saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi asos qilib olingan. Bu qo'lyozma nusxa XIX asr boshlarida noma'lum xattot tomonidan suls yozuvida ko'chirilgan. Jurjoniyniing ushbu risolasi o'rta asrlarda boshlang'ich bilimga ega bo'lgan barcha o'rganuvchilarga mo'ljallangan darsliklar qatorida o'qitilgan. Ushbu qo'llanma gap mazmunining o'zgarishida muhim ahamiyat kasb etadigan harf (yordamchi so'zlar) guruhiga kiritilgan ko'makchi va yuklamalarning ishlatilishi, shuningdek fe'l mavzusi, uning turlari, fe'llarning mazmunga ta'sir qilishi, ko'makchi fe'llarning ishlatilishi, ot va uning xususiyatlari, masdar, aniq va majhul darajali sifat-doshlar, izofa birikmasi kabi qator mavzularni tushuntirishda qo'shimcha adabiyotlar qatorida foydalanish imkonini beradi.

Qo'llanma Toshkent islom universiteti islom huquqi yo'nalishi bitiruvchisi H. Bobojonov bilan birgalikda tayyorlangan. Ish jarayonida qo'lyozma kompyuterda qayta terilib, o'zbek tiliga tarjima qilingan. Zarur o'rinlarga izohlar kiritilgan va mavzularga oid jadvallar ishlab chiqilgan. Bu o'z navbatida Prezidentimiz ta'kidlaganidek, talabalarning ma'naviy merosimizni o'rganishlari, arab tilida yozilgan qo'lyozma matnlar bilan tanishishlari bilan birga til qoidalarini ham o'zlashtirishlariga turtki bo'ladi, deb umid qilamiz.

Tarjima qilish asnosida ayrim masalalarga Yusuf Sakkokiyning “مفتاح العلوم”, Mustafo G'alayiniyning “جامع الدروس العربية”, Ahmad Hoshimiyning «جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبديع», Abdulaziz Atiqning “علم المعاني”, B.M.Grandening “Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении” hamda “الشامل” ensiklopediyasi asosida turli izohlar kiritilishi, qo'llanmaning qiymatini yanada oshirgan.

ABDULQOHIR JURJONIY

O'rta asrlarda yashab, ijod etgan aksariyat olimlar ilm-fanning turli sohalari taraqqiy etishiga ulkan hissa qo'shganlar. Fikrimiz isboti uchun Abu Nasr Forobiy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi ajdodlarimizning ijod mahsullarini yodga olishimiz kifoya. Mazkur olimlar qatorida arab filologiyasi, xususan, nahv va balog'at ilmlari rivojlanishi tarixida salmoqli ishlarni amalga oshirgan Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Abdulqohir Jurjoni, Mahmud Zamaxshariy va Yusuf Sakkokiy kabi allomalarimizning nomlarini ham zikr etishimiz zarur.

Abdulqohir ibn Abdurahmon Jurjoni hayoti haqida juda kam ma'lumotga egamiz. Ammo allomaning qadimgi Tabariston bilan Xuroson oraliq'ida joylashgan Jurjon shahrida tug'ilgani ma'lum. Ko'pgina manbalarda bu shahar Kaspiy dengizi bo'yida joylashgani, fors mamlakatiga qarashli shaharlardan biri ekani keltiriladi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra esa, shahar harobalari Orol dengizi shimolida, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasida topilgan deyilsa, boshqalarida esa hozirgi Urganchga ishora qilinadi. Bundan tashqari, Jurjon aholisi juda madaniyatli xalq bo'lgani, ulardan ko'plab olim, adib, faqih va muhaddislar yetishib chiqqani haqida ham xabarlar yetib kelgan.

Abdulqohir Jurjoniyni tug'ilgan yili manbalarda aniq ko'rsatilmagan. U tug'ilgan vaqt taxminan hijriy V asr boshi

– 400 hijriy sana deb ko'rsatiladi, bunga uning tug'ilgan vaqti Qobus ibn Shamkar hukmronligi davriga (hijriy 433 yilgacha) to'g'ri kelishi asos bo'lgan. Bolaligidan bilimga chanqoq Jurjoniy kambag'al oilada tug'ilib, tarbiyalangani bois, boshqa olimlardek yurtma-yurt kezib ilm olish imkoniga ega bo'lmagan. U til, adabiyot, balog'at va fiqh ilmlariga juda qiziqqan. Abu Ali Forsiyning singlisining o'g'li, o'z davrining yetuk olimi Abu Husayn Muhammad ibn Hasan Forsiydan ta'lim oldi va yosh bo'lsa ham Sibavayhi, Johiz, Mubarrad, ibn Durayd kabi taniqli olimlarning asarlarini batafsil o'rgandi. Natijada Jurjoniy arab nahvi va balog'at ilmi sohalarida samarali mehnat qildi. U balog'at ilmining tarkibiy qismlarini chegaralab bergan ilk olim bo'lib, maoniy va bayon ilmlariga oid masalalarda avvalgi olimlar mulohazalariga ko'p yangiliklar kiritgan. Qur'onning ayrim oyatlarini filologik nuqtai nazardan sharhlashga ham erishgan. Uning bu tadqiqotini keyinchalik Mahmud Zamaxshariy davom ettirdi va mashhur "Kashshof" asarini yaratdi.

Jurjoniy astranomiya, falsafa, fiqh, nahv, sarf, balog'at kabi ilmlarga oid 50 dan ortiq asarlar yozgan. Manbalarda uning quyidagi asarlari qayd etilgan:

1. كتاب التعريفات – mazkur asarda olim o'zi yashagan davrgacha ilm-fan va san'at sohasida qo'llangan atamalarni jamlab, ularning mazmunini izohlagan. Bu asar arab manbalari orasida istilohlarning sharhiga atalgan ilk asarlardan biri hisoblanadi.

2. المغني في شرح الإيضاح – Bu asar 30 jild bo'lib, Abu Ali Forsiyning «الإيضاح» kitobiga bag'ishlangan sharhdir.

3. «المقصد» 3 jilddan iborat bu asar “المعني في شرح الإيضاح”ning qisqartirilgan shakli.

4. التكملة في النحو

5. العوامل المئة في النحو

6. الجمل في النحو

7. العمدة في التصريف

8. كتاب العروض

9. «إعجاز» Abu Abdulloh Muhammad ibn Zayd Bositiyning – المعتضد

«القرآن» kitobiga yozilgan sharh.

10. الرسالة الثانية في الإعجاز

11. شرح سورة الفاتحة

12. المختار من دواوين المتنبي والبحتوري وأبي تمام

13. رسالة في تقسيم العلوم

14. شرح كتاب الجغميني في علم الهيئة

15. شرح ملخص في الهيئة للجغميني

16. شرح التذكرة النصيرية

17. أسرار البلاغة

18. دلائل الإعجاز

19. درج الدرر في تفسير الآي والسور

20. رسالة الشافية

Abdulqohir Jurjoniyl arab balog'at ilmining tarkibiy qismlariga oid أسرار البلاغة va دلائل الإعجاز asarlari tufayli ilm-fan sohasida shuhrat qozondi. “Asrar al-balag'a”da bayon ilmi, “Dala'il al-i'jaz”da esa maoniy ilmi nazariyasini batafsil yoritdi.

Biz o'zbekcha tarjimada e'tiboringizga havola etayotgan “العوامل المثة في النحو” (Al-avamil al-mia fi an-nahv) asari esa so'zlarning so'nggi harfida ma'lum o'zgarishlar bo'lishini talab qiladigan ko'makchi va yuklamalar ifodalaydigan ma'nolarga bag'ishlanadi.

Abdulqohir Jurjoniyl hijriyl 471 (milodiy 1078) yil vafot etgan.

العوامل المئة في النحو

العَوَامِلُ فِي النَّحْوِ هِيَ مِائَةٌ عَامِلٍ . وَ مِنْهَا : اللَّفْظِيَّةُ وَالْمَعْنَوِيَّةُ . وَاللَّفْظِيَّةُ مِنْهَا عَلَى صَرَّتَيْنِ :

1 . سَمَاعِيَّةٌ

2 . قِيَاسِيَّةٌ .

وَالسَّمَاعِيَّةُ مِنْهَا وَاحِدٌ وَتَسْعُونَ عَامِلًا . وَالْقِيَاسِيَّةُ مِنْهَا سَبْعَةٌ عَوَامِلَ .
وَالْمَعْنَوِيَّةُ مِنْهَا عَدَدَانِ .

وَتَتَنَوَّعُ السَّمَاعِيَّةُ مِنْهَا عَلَى ثَلَاثَةِ عَشَرَ نَوْعًا .

النَّوْعُ الْأَوَّلُ

حُرُوفُ تَجْرُ الْأَسْمَاءَ فَقَطْ . وَهِيَ سَبْعَةٌ عَشَرَ حَرْفًا :

1 الباء (ب)

● لِلإِلصَاقِ . نَحْوُ :

مَرَرْتُ بِرَبْدٍ وَبِهِ دَاءٌ .

● وَلِلتَّعْدِيَةِ . نَحْوُ :

ذَهَبْتُ بِرَبْدٍ .

● وَلِلْإِسْتِعَانَةِ نَحْوُ:

كَتَبْتُ بِالْقَلَمِ.

● وَلِلْمُصَاحَبَةِ نَحْوُ:

دَخَلْتُ عَلَيْهِ بِشِيَابِ السَّفَرِ.

● وَلِلْمُقَابَلَةِ نَحْوُ:

بِعْتُ هَذَا بِهَذَا.

● وَلِلظَّرْفِيَّةِ نَحْوُ:

جَلَسْتُ بِالْمَسْجِدِ أَيْ فِي الْمَسْجِدِ.

● وَلِلْقَسَمِ نَحْوُ:

بِاللَّهِ، لَأَفْعَلَنَّ كَذَا.

● وَزَائِدَةٌ نَحْوُ:

لَا تُلْقُوا بِأَيْدِيكُمْ إِلَى التَّهْلُكَةِ.

كَفَى بِاللَّهِ شَهِيدًا.

● لِلْسَّبَبِيَّةِ نَحْوُ:

صَرَبْتُ زَيْدًا بِالسُّوءِ.

2 مِنْ:

- لَا بُدَّاءِ الْعَايَةِ فِي الْمَكَانِ. نَحْو:
- سِرْتُ مِنَ الْبَصْرَةِ إِلَى الْكُوفَةِ.
- لَا بُدَّاءِ الْعَايَةِ فِي الزَّمَانِ. نَحْو:
- صُمْتُ مِنْ يَوْمِ الْجُمُعَةِ إِلَى السَّبْتِ.
- لِلتَّبَعِيزِ. نَحْو:
- أَخَذْتُ مِنَ الْمَالِ.
- لِلتَّبَيُّينِ. نَحْو:
- فَاجْتَنِبُوا الرُّجَسَ مِنَ الْأَوْثَانِ.
- وَزَائِدَةٌ. نَحْو:
- مَا جَاءَنِي مِنْ أَحَدٍ.

3 إِلَى:

- لَا نْتِهَاءَ الْعَايَةِ فِي الْمَكَانِ. نَحْو:
- سِرْتُ مِنَ الْبَصْرَةِ إِلَى الْكُوفَةِ.
- لَا نْتِهَاءَ الْعَايَةِ فِي الزَّمَانِ. نَحْو:
- أَتَمُّوا الصِّيَامَ إِلَى اللَّيْلِ.
- بِمَعْنَى «مَعَ» قَلِيلًا. نَحْو:

لَا تَأْكُلُوا أَمْوَالَهُمْ إِلَى أَمْوَالِكُمْ. أَيُّ مَعَ أَمْوَالِكُمْ.
فَاعْسِلُوا وُجُوهَكُمْ وَأَيْدِيَكُمْ إِلَى الْمَرَافِقِ.

4 في:

● لِلظَّرْفِيَّةِ. نَحَوُ:

زَيْدٌ فِي الدَّارِ. نَظَرْتُ فِي الْكِتَابِ.

● وَبِمَعْنَى «عَلَى» قَلِيلًا. نَحَوُ:

لَأُصَلِّبَنَّكُمْ فِي جُذُوعِ النَّخْلِ أَوْ عَلَى جُذُوعِ النَّخْلِ.

5 حَتَّى:

● لَانْتِهَاءِ الْغَايَةِ وَمَجْرُورِهَا الْجُزْءُ الْأَخِيرُ مِنَ الشَّيْءِ الْأَوَّلِ. نَحَوُ:

أَكَلْتُ السَّمَكَةَ حَتَّى رَأْسِهَا.

● لَانْتِهَاءِ الْغَايَةِ وَمُتَّصِلٌ بِالْجُزْءِ الْأَخِيرِ مِنَ الشَّيْءِ الْأَوَّلِ. نَحَوُ:

نِمْتُ الْبَارِحَةَ حَتَّى الصَّبَاحِ.

6 اللام:

● لِلإِخْتِصَاصِ. نَحَوُ:

الْمَالُ لِرَيْدٍ وَالْجُلُ لِلْفَرَسِ.

● لِلتَّعْلِيلِ. نَحَوُ:

ضَرَبْتُ زَيْدًا لِلتَّأْدِيبِ.

• لِّلْقَسَمِ . نَحْوُ:

لِلّهِ لَا يُؤَخِّرُ الْأَجَلَ .

• وَزَائِدَةٌ . نَحْوُ:

رَدِفَ لَكُمْ وَلَا أَبَا لَكُمْ .

7 رُبَّ:

• لِلتَّقْلِيلِ وَهِيَ مُخْتَصَّةٌ بِنَكِرَةٍ مَوْصُوفَةٍ وَيَلْزَمُ مَجْرُورُهَا الْوَصْفُ بِمُفْرَدٍ .
نَحْوُ:

رُبَّ رَجُلٍ كَرِيمٍ لَقِيْتُهُ .

وَمُخْتَصَّةٌ بِنَكِرَةٍ مَوْصُوفَةٍ وَيَلْزَمُ مَجْرُورُهَا الْوَصْفُ بِجُمْلَةٍ . نَحْوُ:
رُبَّ رَجُلٍ أَبَوْهُ مُنْطَلِقٌ لَقِيْتُهُ .

8 . على:

• لِلْإِسْتِعْلَاءِ . نَحْوُ:

زَيْدٌ عَلَى السَّطْحِ . وَعَلَيْهِ دَيْنٌ .

9 . عن:

لِلْبُعْدِ وَالْمَجَاوِزَةِ . نَحْوُ:

رَمَيْتُ السَّهْمَ عَنِ الْقَوْسِ إِلَى الصَّيْدِ .
وَأَخَذْتُ عَنْهُ الْعِلْمَ .
وَأَدَيْتُ عَنْهُ الدَّيْنَ .

10 . الكاف:

• لِلتَّشْبِيهِ . نَحْوُ:

زَيْدٌ كَالْأَسَدِ .

• وَزَائِدَةٌ . نَحْوُ:

لَيْسَ كَمِثْلِهِ شَيْءٌ .

11-12 . مُذٌ ، وَمُنْذُ:

• لَا بِنِدَاءِ الْعَايَةِ فِي الزَّمَانِ الْمَاضِي . نَحْوُ:

مَا رَأَيْتُهَا مُذْ يَوْمِ الْجُمُعَةِ .

• وَبِمَعْنَى جَمِيعِ الْمُدَّةِ فَيَلِيهِمَا الْمَقْصُودُ بِالْعَدَدِ . نَحْوُ:

مَا رَأَيْتُهُ مُذْ ثَلَاثَةِ أَيَّامٍ وَمُنْذُ ثَلَاثَةِ أَيَّامٍ .

13 . الواو:

• لِلْقَسَمِ وَهِيَ لَا تَدْخُلُ إِلَّا عَلَى الْمُظْهَرِ . نَحْوُ:

وَاللَّهِ لَا فَعَلَنْ كَذَا .

14 . التاء:

• لِلْقَسَمِ وَهِيَ لَا تَدْخُلُ إِلَّا عَلَى اسْمِ اللَّهِ . نَحْوُ:

تَاللَّهِ لَا أَكِيدَنَّ كَذَا .

15. حاشا:

● لِلتَّنْزِيهِ. نَحْو:

أَسَاءَ الْقَوْمُ حَاشَا زَيْدٍ.

16-17. خلا وعدا:

● لِلْإِسْتِنَاءِ. نَحْو:

جَاءَنِي الْقَوْمُ خَلَا زَيْدٍ وَعَدَا زَيْدٍ.

وَيَجُوزُ خَلَا زَيْدًا وَعَدَا زَيْدًا فَكَانَ فِعْلَيْنِ. إِذَا دَخَلَ عَلَيْهِمَا مَا لَا يَكُونَانِ إِلَّا فِعْلَيْنِ. نَحْو:

جَاءَنِي الْقَوْمُ مَا خَلَا زَيْدًا وَمَا عَدَا زَيْدًا.

النوع الثاني

حُرُوفُ تَنْصِبُ الْأِسْمَ وَتَرْفَعُ الْخَبَرَ وَهِيَ سِتَّةٌ أُحْرَفُ تُسَمَّى الْحُرُوفُ الْمُشَبَّهَةُ بِالْفِعْلِ.

1 إنَّ :

● لِتَحْقِيقِ مَضْمُونِ الْجُمْلَةِ. نَحْو:

إِنَّ زَيْدًا مُنْطَلِقٌ.

تُلْحَقُهَا مَا الْكَافَّةِ فُتُلْعَى عَنِ الْعَمَلِ وَارْتَفَعَ الْأَسْمَانِ. نَحْو:

إِنَّمَا اللَّهُ إِلَهٌ وَاحِدٌ. إِنَّمَا زَيْدٌ مُنْطَلِقٌ.

2. أَنْ:

• لِتَحْقِيقِ مَضْمُونِ الْجُمْلَةِ أَيْضًا. نَحْوُ:
بَلَّغْنِي أَنَّ زَيْدًا ذَاهِبٌ.

3. كَأَنَّ:

• لِلتَّشْبِيهِ. نَحْوُ:
كَأَنَّ زَيْدًا الْأَسَدُ.

4. لَكِنْ:

• لِلْإِسْتِدْرَاكِ وَهِيَ تَقَعُ بَيْنَ الْكَلَامَيْنِ الْمُتَعَارِفَيْنِ نَفِيًّا وَاثْبَاتًا. نَحْوُ:
مَا جَاءَنِي زَيْدٌ لَكِنَّ عَمْرًا حَاضِرٌ.
جَاءَنِي زَيْدٌ لَكِنَّ عَمْرًا لَمْ يَجِئْ.

5. لَيْتَ:

• لِلتَّامَنِّي وَهِيَ فِي الْمُمْكِنِ وَالْمُحَالِ. نَحْوُ:
لَيْتَ زَيْدًا عَابِدٌ.
لَيْتَ الشَّبَابَ يَعُودُ.

6. لَعَلَّ:

• لِلتَّرَجِّي وَهِيَ لَا تَقَعُ إِلَّا فِي الْمُمْكِنِ. نَحْوُ:
لَعَلَّ زَيْدًا عَابِدٌ.

النوع الثالث

حَرْفَانِ مُتَشَبَّهَتَانِ بِلَيْسَ وَهُمَا: مَا وَلَا. هُمَا تَرْفَعَانِ الْاسْمَ وَتَنْصِبَانِ الْحَبَرَ.

● و«مَا» تَدْخُلُ عَلَى الْمَعْرِفَةِ وَالنَّكِرَةِ. نَحْوُ:

مَا زَيْدٌ قَائِمًا وَمَا رَجُلٌ قَاعِدًا.

● «لَا» لَا تَدْخُلُ إِلَّا عَلَى النَّكِرَةِ. نَحْوُ:

لَا رَجُلٌ أَفْضَلُ مِنْكَ.

النوع الرابع

حُرُوفٌ تَنْصِبُ الْاسْمَ فَقَطْ وَهِيَ سَبْعَةٌ أُحْرَفِ.

1 الْوَاوُ:

● بِمَعْنَى مَعَ وَيَكُونُ مَا قَبْلَهَا الْفِعْلُ. نَحْوُ:

اسْتَوَى الْمَاءُ وَالْخَشَبَةُ.

● وَبِمَعْنَى الْفِعْلِ. نَحْوُ:

مَا شَأْنُكَ وَزَيْدًا أَيْ مَا تَصْنَعُ وَزَيْدًا.

2 إِلَّا:

● لِلْإِسْتِنَاءِ وَهُوَ مُتَّصِلٌ. نَحْوُ:

جَاءَنِي الْقَوْمُ إِلَّا زَيْدًا.

هُوَ مُنْقَطِعٌ. نَحْوُ:

جَاءَنِي الْقَوْمُ إِلَّا حِمَارًا.

3. يا:

لِنِدَاءِ الْقَرِيبِ وَالْبَعِيدِ. نَحْوُ:

يَا رَجُلًا، خُذْ بِيَدِي. يَا عَبْدَ اللَّهِ وَيَا طَالِعًا جَبَلًا.

4. هيا:

● لِنِدَاءِ الْبَعِيدِ أَيْضًا. نَحْوُ:

هَيَا رَجُلًا، خُذْ بِيَدِي. هَيَا عَبْدَ اللَّهِ وَهَيَا طَالِعًا جَبَلًا.

5. أيًا:

● لِنِدَاءِ الْبَعِيدِ أَيْضًا. نَحْوُ:

أَيَا رَجُلًا، خُذْ بِيَدِي. أَيَا عَبْدَ اللَّهِ وَأَيَا طَالِعًا جَبَلًا.

6. أي:

● لِنِدَاءِ الْقَرِيبِ. نَحْوُ:

أَيُّ رَجُلًا، خُذْ بِيَدِي. أَيُّ عَبْدَ اللَّهِ وَأَيُّ طَالِعًا جَبَلًا.

7. الهمزة:

● لِنِدَاءِ الْقَرِيبِ أَيْضًا. نَحْوُ:

أَرْجُلًا، خُذْ بِيَدِي. أَعْبَدَ اللَّهُ وَأَطَالِعًا جَبَلًا.

النوع الخامس
حُرُوفُ تَنْصِبُ الْفِعْلَ الْمُضَارِعَ وَهِيَ أَرْبَعَةٌ أَحْرَفٌ:
1 أن:

● لِلْاِسْتِقْبَالِ. نَحْوُ:
أُحِبُّ أَنْ تَقُومَ.

2. لن:

● لِتَأْكِيدِ نَفْيِ الْمُسْتَقْبَلِ. نَحْوُ:
لَنْ أَبْرَحَ الْأَرْضَ حَتَّى يَأْذَنَ لِي أَبِي.
3. كي:

● لِلتَّغْلِيلِ وَمَا قَبْلَهَا سَبَبٌ لِمَا بَعْدَهَا. نَحْوُ:
أَسْلَمْتُ كَيْ أَدْخُلَ الْجَنَّةَ.
4. إذن:

● لِلْجَوَابِ وَالْجَزَاءِ.
كَقَوْلِكَ إِذَنْ أَكْرَمَكَ لِمَنْ قَالَ أَنَا آتِيكَ فَقَدْ أَجَبْتَ بِهَذَا الْكَلَامِ وَصَيَّرْتَ
إِكْرَامَكَ جَزَاءً لِإِثْنَانِهِ.

النوع السادس
حُرُوفُ تَجْزِمُ الْفِعْلَ الْمُضَارِعَ وَهِيَ خَمْسَةٌ أَحْرَفٌ.

1. إِنَّ :

● لِلشَّرْطِ وَالْجَزَاءِ . نَحْوُ:
إِنَّ تُكْرِمَنِي أُكْرِمَكَ .

2. لَمْ :

● لِنَفْيِ الْمَاضِي . نَحْوُ:
لَمْ يَضْرِبْ زَيْدٌ .

3. لَمَّا :

● لَاسْتِعْرَاقِ نَفْيِ الْمَاضِي . نَحْوُ:
لَمَّا يَضْرِبُ زَيْدٌ .

4. لَامُ الْأَمْرِ :

نَحْوُ: لِيَضْرِبْ زَيْدٌ .

5. لَا النَّهْيِ :

نَحْوُ: لَا تَضْرِبْ زَيْدًا .

النوع السابع

أَسْمَاءُ تَجْزَمُ الْفِعْلَ الْمُضَارِعَ عَلَى مَعْنَى إِنَّ . وَهِيَ تِسْعَةٌ :

1 أَسْمَاءُ مَنْ ، نَحْوُ :

مَنْ يُكْرِمَنِي أُكْرِمُهُ أَيْ إِنَّ يُكْرِمَنِي زَيْدٌ أُكْرِمُهُ .

2 مَتَى ، نَحْوُ:

مَتَى تَخْرُجُ أَخْرُجْ أَيِ إِنَّ تَخْرُجَ غَدًا أَخْرُجْ غَدًا.

3. مَا ، نَحْوُ:

مَا تَصْنَعُ أَصْنَعُ أَيِ إِنَّ تَصْنَعُ هَذَا أَصْنَعُ هَذَا.

4. حَيْثُمَا ، نَحْوُ:

حَيْثُمَا تَقْعُدُ أَقْعُدُ أَيِ إِنَّ تَقْعُدَ فِي الْبَيْتِ أَقْعُدَ فِي الْبَيْتِ.

5. مَهْمَا ، نَحْوُ:

مَهْمَا تَذْهَبُ أَذْهَبُ أَيِ إِنَّ تَذْهَبَ غَدًا أَذْهَبَ غَدًا.

6. أَيْنَمَا ، نَحْوُ:

أَيْنَمَا تَجْلِسُ أَجْلِسُ أَيِ إِنَّ تَجْلِسَ فِي الْبَيْتِ أَجْلِسَ فِي الْبَيْتِ.

7. أَنَّى ، نَحْوُ:

أَنَّى تَكُنْ أَكُنْ أَيِ إِنَّ تَكُنْ فِي الْبَلَدِ أَكُنْ فِي الْبَلَدِ.

8. أَيُّ ، نَحْوُ:

أَيُّهُمْ يَشْتُمْنِي أَسْتُمُّهُمْ أَيِ إِنَّ يَشْتُمْنِي زَيْدٌ أَسْتُمُّهُ.

9. إِذْمَا ، نَحْوُ:

إِذْمَا تَفْعَلُ أَفْعَلُ أَيِ إِنَّ تَفْعَلَ الْخِيَاطَةُ أَفْعَلَ الْخِيَاطَةَ.

النوع الثامن

أَسْمَاءُ تَنْصِبُ أَسْمَاءَ النِّكَرَاتِ عَلَى التَّمْيِيزِ وَهِيَ أَرْبَعَةٌ.

● الأول: عَشْرٌ إِذَا رُكِّبَ مَعَ أَحَدٍ إِلَى تِسْعَةٍ وَتِسْعِينَ. نَحْوُ:

أَحَدَ عَشَرَ رَجُلًا وَإِحْدَى عَشْرَةَ

امْرَأَةً إِلَى تِسْعَةٍ وَتِسْعِينَ رَجُلًا وَتِسْعِينَ امْرَأَةً.

● الثاني: كَمَ الاستفهامية. نَحْوُ:

كَمَ رَجُلًا عِنْدَكَ؟

● الثالث : كَأَيٍّ. نَحْوُ :

كَأَيِّ رَجُلًا عِنْدَكَ.

● الرابع: كَذَا. نَحْوُ:

عِنْدِي كَذَا ذِرْهَمًا.

النوع التاسع

كَلِمَاتٌ تُسَمَّى أَسْمَاءَ الْأَفْعَالِ بَعْضُهَا تَرْفَعُ وَبَعْضُهَا تَنْصِبُ. وَهِيَ تِسْعَةٌ
كَلِمَاتٍ وَالنَّاصِبَةُ مِنْهَا سِتَّةٌ:

1 رُوِيَ: هُوَ اسْمُ أَمْهَلٍ. نَحْوُ:

رُوِيَ زَيْدًا أَيُّ أَمْهَلٍ زَيْدًا.

2 بَلَّ: هُوَ اسْمُ لِدَعٍ. نَحْوُ:

بَلَّهَ زَيْدًا أَي دَعَا زَيْدًا.

3 دُونَكَ: هُوَ اسْمٌ لِحُذِّ. نَحْوُ:

دُونَكَ زَيْدًا أَي حُذِّ زَيْدًا.

4. عَلَيْكَ: هُوَ اسْمٌ لَالْزَمِ. نَحْوُ:

عَلَيْكَ زَيْدًا أَي الزَّمْ زَيْدًا.

5 هَا: وَهُوَ اسْمٌ لِحُذِّ. نَحْوُ:

هَا زَيْدًا أَي حُذِّ زَيْدًا.

6 حَيْهَلٌ وَهُوَ اسْمٌ لآيَتِ. نَحْوُ:

حَيْهَلُ الصَّلَاةِ أَي آيَةُ الصَّلَاةِ.

وَالرَّافِعَةُ مِنْهَا ثَلَاثَةٌ:

● أَحَدُهَا: هَيْهَاتَ هُوَ اسْمٌ لِبَعْدِ. نَحْوُ:

هَيْهَاتَ زَيْدٌ أَي بَعْدَ زَيْدٍ.

● ثَانِيهَا: سُرْعَانَ هُوَ اسْمٌ لِسُرْعِ. نَحْوُ:

سُرْعَانَ زَيْدٌ أَي سَرَعَ زَيْدٌ.

● ثَالِثُهَا: شَتَّانَ وَهُوَ اسْمٌ لافْتَرَقَ. نَحْوُ:

شَتَّانَ زَيْدٌ وَعَمَرُوهُ أَي افْتَرَقَ زَيْدٌ وَعَمَرُوهُ.

النوع العاشر

الْأَفْعَالُ النَّاقِصَةُ تَرْفَعُ الْاسْمَ وَتَنْصِبُ الْخَبَرَ وَهِيَ ثَلَاثَةٌ عَشَرَ فِعْلًا:

1. كَانَ، نَحْوُ:

كَانَ اللَّهُ عَلِيمًا حَكِيمًا.

● وَقَدْ يَكُونُ تَامَةً بِمَعْنَى وَقَعَ وَوُجِدَ. نَحْوُ:

كَانَ زَيْدٌ أَيْ وَقَعَ زَيْدٌ.

خَلَقَ اللَّهُ الدُّنْيَا فَكَانَ صَبَاحٌ وَكَانَ مَسَاءٌ.

● وَزَائِدَةٌ. نَحْوُ:

كَيْفَ نُكَلِّمُ مَنْ كَانَ فِي الْمَهْدِ صَبِيًّا.

● بِمَعْنَى صَارَ. نَحْوُ:

كَانَ زَيْدٌ غَنِيًّا أَيْ صَارَ زَيْدٌ غَنِيًّا.

● وَيَكُونُ فِيهَا ضَمِيرُ الشَّانِ. نَحْوُ:

كَانَ زَيْدٌ قَائِمٌ.

2. فَصَارَ، لَا تُنْقَالِ. نَحْوُ:

صَارَ الْفَقِيرُ غَنِيًّا.

وَصَارَ الطَّيْنُ خَرْفًا.

لَا يُقَالُ صَارَ اللَّهُ عَلِيمًا حَكِيمًا.

3. ثَالِثُهَا أَصْبَحَ، لافْتِرَانِ مَضْمُونِ الْجُمْلَةِ بِالصُّبْحِ. نَحْوُ:

أَصْبَحَ زَيْدٌ عَالِمًا.

● وَبِمَعْنَى صَارَ. نَحْوُ:

أَصْبَحَ الْمَرِيضُ صَحِيحًا.

● وَبِمَعْنَى الدُّخُولِ فِي الصُّبْحِ. نَحْوُ:

أَصْبَحَ زَيْدٌ أَيْ دَخَلَ فِي الصُّبْحِ.

4. وَ أَضْحَى لافْتِرَانِ مَضْمُونِ الْجُمْلَةِ بِالضُّحَى. نَحْوُ:

أَضْحَى زَيْدٌ كَرِيمًا.

● وَبِمَعْنَى صَارَ. نَحْوُ:

أَضْحَى الْأَمِيرُ أُسَيْرًا.

● وَبِمَعْنَى الدُّخُولِ فِي الضُّحَى. نَحْوُ:

أَضْحَى زَيْدٌ أَيْ دَخَلَ زَيْدٌ فِي الضُّحَى.

5. أَمْسَى، لافْتِرَانِ مَضْمُونِ الْجُمْلَةِ بِالْمَسَاءِ. نَحْوُ:

أَمْسَى زَيْدٌ عَالِمًا.

● وَبِمَعْنَى صَارَ. نَحْوُ:

أَمْسَى الدَّلِيلُ عَزِيزًا.

● وَبِمَعْنَى الدُّخُولِ فِي الْمَسَاءِ. نَحْوُ:

أَمْسَى زَيْدٌ أَيْ دَخَلَ زَيْدٌ فِي الْمَسَاءِ .

6. ظَلَّ، لافْتِرَانِ مَضْمُونِ الْجُمْلَةِ بِالنَّهَارِ . نَحْوُ:

ظَلَّ زَيْدٌ قَائِمًا .

● وَبِمَعْنَى صَارَ . نَحْوُ:

ظَلَّ الصَّبِيُّ بِالْغَا .

7. بَاتَ، لافْتِرَانِ مَضْمُونِ الْجُمْلَةِ بِاللَّيْلِ . نَحْوُ:

بَاتَ زَيْدٌ عَابِدًا .

● وَبِمَعْنَى صَارَ . نَحْوُ:

بَاتَ الْحَزِينُ فَرَحًا .

8-9-10-11. مَا زَالَ وَمَا بَرِحَ وَمَا فَتَى وَمَا انْفَكَ ، لاسْتِمْرَارِ إِخْبَارِهَا

لأَسْمَائِهَا . نَحْوُ:

مَا زَالَ زَيْدٌ كَرِيمًا .

مَا بَرِحَ زَيْدٌ جَوَادًا .

مَا فَتَى زَيْدٌ رَحِيمًا .

مَا انْفَكَ زَيْدٌ عَالِمًا .

12. مَا دَامَ تَوَقَّيْتُ أَمْرَ بِمُدَّةٍ ثُبُوتِ خَبَرِهَا لاسْمِهَا . نَحْوُ :

اجْلِسْ وَمَا دَامَ زَيْدٌ جَالِسًا أَيْ اجْلِسْ مُدَّةَ جُلُوسِ زَيْدٍ .

13. لَيْسَ لِنَفْيِ مَضْمُونِ الْجُمْلَةِ فِي الْحَالِ. نَحْوُ:

لَيْسَ زَيْدٌ قَائِمًا .

مَا يَتَصَرَّفُ مِنْ هَذِهِ الْأَفْعَالِ حُكْمُهُ حُكْمُ هَذِهِ الْأَفْعَالِ وَعَمَلُهُ كَعَمَلِهَا .

النوع الحادي عشر

أَفْعَالُ الْمُقَارَبَةِ تَرْفَعُ الْأِسْمَ وَتَنْصِبُ الْخَبَرَ وَهِيَ أَرْبَعَةُ أَفْعَالٍ:

1. عَسَى، هُوَ لِرَجَاءٍ دُنُو الْخَبَرِ لِاسْمِهَا وَخَبَرُهُ الْفِعْلُ الْمُضَارِعُ مَعَ «أَنْ» نَحْوُ:

عَسَى أَنْ يَخْرُجَ زَيْدٌ أَيْ قَارَبَ زَيْدٌ الْخُرُوجَ.

وَإِذَا جُعِلَ الْمُضَارِعُ مَعَ «أَنْ» اسْمُهَا لَا يَحْتَاجُ إِلَى الْخَبَرِ. نَحْوُ:

عَسَى أَنْ يَخْرُجَ زَيْدٌ أَيْ قَارَبَ خُرُوجَ زَيْدٍ.

2. كَادَ، وَهِيَ لِدُنُو الْخَبَرِ وَخَبَرُهُ الْفِعْلُ الْمُضَارِعُ الْأَوَّلُ بِاسْمِ الْفَاعِلِ. نَحْوُ:

كَادَ زَيْدٌ يَخْرُجُ أَيْ كَادَ زَيْدٌ خَارِجًا.

3. كَرَّبَ، هُوَ لِشُرُوعِ الْأِسْمِ فِي الْخَبَرِ وَهُوَ مِثْلُ كَادَ فِي الْأِسْتِعْمَالِ. نَحْوُ:

كَرَّبَ زَيْدٌ يَخْرُجُ أَيْ قَرَّبَ زَيْدٌ خَارِجًا.

4. أَوْشَكَ، وَهُوَ لِشُرُوعِ الْأِسْمِ فِي الْخَبَرِ. وَهُوَ مِثْلُ عَسَى وَكَادَ فِي الْأِسْتِعْمَالِ. نَحْوُ:

أَوْشَكَ زَيْدٌ أَنْ يَخْرُجَ وَأَوْشَكَ زَيْدٌ يَخْرُجُ.

النوع الثاني عشر

أَفْعَالُ الْمَدْحِ وَالذَّمِّ تَرْفَعُ اسْمَ الْجِنْسِ مُعَرَّفًا بِاللَّامِ أَوِ الْمُضَافِ إِلَى الْمُعَرَّفِ بِهَا أَوْ مُضَمَّرًا مُمَيِّزًا بِنَكِرَةٍ مَنْصُوبَةٍ. وَهِيَ أَرْبَعَةُ أَفْعَالٍ:

١. نِعَمَ، لِمَدْحِ الْعَامِ. نَحْوُ:

نِعَمَ الرَّجُلُ زَيْدٌ.

نِعَمَ غُلَامَ الرَّجُلِ زَيْدٌ.

نِعَمَ رَجُلًا زَيْدٌ.

2. بُسَّسَ لِدَمِّ الْعَامِ. نَحْوُ:

بُسَّسَ الرَّجُلُ زَيْدٌ.

بُسَّسَ غُلَامَ الرَّجُلِ زَيْدٌ.

بُسَّسَ رَجُلًا زَيْدٌ.

3. حَبَّذا هُوَ مِثْلَ «نِعَمَ». نَحْوُ:

حَبَّذا الرَّجُلُ زَيْدٌ.

4. سَاءَ هُوَ مِثْلَ «بُسَّسَ». نَحْوُ:

سَاءَ الرَّجُلُ زَيْدٌ.

النوع الثالث عشر

أَفْعَالُ الشَّكِّ وَالْيَقِينِ وَتُسَمَّى أَفْعَالُ الْقُلُوبِ وَهِيَ تَدْخُلُ عَلَى اسْمَيْنِ ثَانِيَهُمَا

عِبَارَةٌ عَنِ الْأَوَّلِ وَتَنْصِبُهُمَا مَعًا وَهِيَ سَبْعَةُ أَفْعَالٍ وَثَلَاثَةٌ مِنْهَا لِلشَّكِّ:

1. ظَنَنْتُ، نَحَوُ:

ظَنَنْتُ زَيْدًا قَائِمًا.

قَدْ يَكُونُ بِمَعْنَى اتَّهَمْتُ فَلَا تَنْصِبُ إِلَّا اسْمًا وَاحِدًا.

2. حَسِبْتُ نَحَوُ:

حَسِبْتُ زَيْدًا عَابِدًا.

3. خَلْتُ نَحَوُ:

خَلْتُ زَيْدًا كَرِيمًا.

ثَلَاثَةٌ مِنْهَا لِلْيَقِينِ:

4. عَلِمْتُ نَحَوُ:

عَلِمْتُ زَيْدًا عَالِمًا.

وَقَدْ يَكُونُ بِمَعْنَى عَرَفْتُ، فَلَا تَنْصِبُ إِلَّا اسْمًا وَاحِدًا.

5. وَجَدْتُ، نَحَوُ:

وَجَدْتُ زَيْدًا حَاضِرًا.

قَدْ يَكُونُ بِمَعْنَى أَصَبْتُ، فَلَا تَنْصِبُ إِلَّا اسْمًا وَاحِدًا.

6. رَأَيْتُ نَحَوُ:

رَأَيْتُ زَيْدًا قَائِمًا.

وَقَدْ يَكُونُ بِمَعْنَى أَبْصَرْتُ، فَلَا تَنْصِبُ إِلَّا اسْمًا وَاحِدًا.
وَاحِدٌ مِنْهَا يَكُونُ تَارَةً بِمَعْنَى عَلِمْتُ وَتَارَةً ظَنَنْتُ يُعْلَمُ بِالْقَرِينَةِ وَهُوَ
«زَعَمْتُ». نَحْوُ:

زَعَمْتُ زَيْدًا إِنْسَانًا. زَعَمْتُ زَيْدًا كَرِيمًا.

العوامل القياسية

الْقِيَاسِيَّةُ مِنْهَا سَبْعَةٌ عَوَامِلَ.

1. الْفِعْلُ عَلَى الْإِطْلَاقِ

وَهُوَ عَلَى ضَرَبَيْنِ: لَازِمٌ وَمُتَعَدٌّ.

فَاللَّازِمُ يَرْفَعُ اسْمًا وَاحِدًا عَلَى أَنَّهُ فَاعِلٌ. نَحْوُ:
شَرَفَ زَيْدٌ.

وَالْمُتَعَدِّي عَلَى ثَلَاثَةِ أَقْسَامٍ:

1. مُتَعَدٍّ إِلَى مَفْعُولٍ وَاحِدٍ. نَحْوُ:

ضَرَبْتُ زَيْدًا.

2. وَمُتَعَدٍّ إِلَى مَفْعُولَيْنِ تَانِيَهُمَا عَيْنُ الْأَوَّلِ أَوْ غَيْرُ الْأَوَّلِ. نَحْوُ:

حَسِبْتُ زَيْدًا عَالِمًا.

أَعْطَيْتُ زَيْدًا دِرْهَمًا.

3. مُتَعَدٍّ إِلَى ثَلَاثَةِ مَفَاعِيلَ. نَحْوُ:

أَعْلَمْتُ عَمْرًا زَيْدًا فَاضِلًا .

2. المصدر

هُوَ الْاسْمُ الَّذِي أُشْتُقُّ مِنْهُ الْفِعْلُ وَهُوَ يَعْمَلُ عَمَلٍ فِعْلِهِ إِذَا كَانَ مُتَوْنًا .
نَحْوُ:

عَجَبْتُ مِنْ ضَرْبٍ زَيْدٍ عَمْرًا .

أَوْ مُضَافًا إِلَى الْفَاعِلِ وَيُتْرَكُ الْمَفْعُولُ مُنْصُوبًا . نَحْوُ:

عَجَبْتُ مِنْ دَقِّ الْقَصَّارِ الثَّوْبِ .

وَقَدْ يُضَافُ إِلَى الْمَفْعُولِ وَيُتْرَكُ الْفَاعِلُ مَرْفُوعًا . نَحْوُ:

عَجَبْتُ مِنْ ضَرْبِ اللَّصِّ الْجَلَّادِ .

3. اسم الفاعل

هُوَ كُلُّ اسْمٍ أُشْتُقُّ مِنْ فِعْلٍ لِذَاتِ مَنْ قَامَ بِهِ الْفِعْلُ وَهُوَ يَعْمَلُ عَمَلٍ فِعْلِهِ
إِذَا كَانَ بِمَبْنَى الْحَالِ وَالْإِسْتِقْبَالِ بِشَرْطِ الْإِعْتِمَادِ عَلَى الْمُوصُوفِ . نَحْوُ:

مَرَرْتُ بِرَجُلٍ رَاكِبٍ فَرَسَهُ .

أَوْ الْمُبْتَدَأِ . نَحْوُ:

زَيْدٌ ضَارِبٌ عَمْرًا .

زَيْدٌ قَائِمٌ غُلَامُهُ .

أَوْ ذِي الْحَالِ . نَحْوُ:

رَأَيْتُ زَيْدًا رَاكِبًا فَرَسَهُ.

أَوْ الاسْتِفْهَامُ. نَحْوُ:

أَقَائِمُ أَخُوكَ.

إِمَّا إِذَا كَانَ بِمَعْنَى الْمَاضِي فَلَا يَعْمَلُ عَمَلُ فِعْلِهِ. فَلَا يُقَالُ:

زَيْدٌ ضَارِبٌ غُلَامَهُ عَمْرًا أَمْسَ.

4. اسم المفعول

وَهُوَ كُلُّ اسْمٍ أُشْتُقَّ مِنْ فِعْلٍ لِذَاتِ مَنْ وَقَعَ عَلَيْهِ الْفِعْلُ هُوَ كَاسْمِ الْفَاعِلِ فِي اشْتِرَاطِ أَحَدِ الزَّمَانَيْنِ وَالْإِعْتِمَادِ. نَحْوُ:

زَيْدٌ مُكْرَمٌ أَصْحَابُهُ الْآنَ أَوْ غَدًا.

وَمَرَرْتُ بِرَجُلٍ مَضْرُوبٍ غُلَامُهُ الْآنَ أَوْ غَدًا.

وَرَأَيْتُ زَيْدًا مَضْرُوبًا غُلَامُهُ الْآنَ أَوْ غَدًا.

وَأَمَّا مَضْرُوبٌ غُلَامُكَ الْآنَ أَوْ غَدًا.

مَا مَضْرُوبٌ غُلَامُكَ الْآنَ أَوْ غَدًا.

وَأَمَّا إِذَا أُرِيدَ بِهِ الْمَاضِي فَلَا يَعْمَلُ عَمَلُ فِعْلِهِ. فَلَا يُقَالُ زَيْدٌ مُكْرَمٌ أَصْحَابُهُ أَمْسَ.

وَإِنَّمَا أُشْتُرِطَ الْإِعْتِمَادُ عَلَى أَحَدِ الْأُمُورِ الْمَذْكُورَةِ فِي عَمَلِ اسْمِ الْفَاعِلِ

وَأَسْمُ الْمَفْعُولِ لِأَنَّهُمَا ضَعِيفَا الْعَمَلِ فَلَا بُدَّ مِنَ الْإِعْتِمَادِ لِيُقَوِّيَ كُلُّ مِنْهُمَا قُوَّةً
فَيَعْمَلَ عَمَلٌ فِعْلِهِ.

5. الصفة المشبهة

وَهِيَ كُلُّ اسْمٍ أُشْتُقَّ مِنْ فِعْلٍ لَازِمٍ لِدَاتِ مَنْ قَامَ بِهِ الْفِعْلُ عَلَى مَعْنَى الثُّبُوتِ
وَالدَّوَامِ وَيَعْمَلُ عَمَلٌ فِعْلِهِ مُطْلَقًا. نَحْوُ:

زَيْدٌ كَرِيمٌ آبَاؤُهُ.

كَمَا تَقُولُ:

زَيْدٌ يُكْرَمُ آبَاؤُهُ.

وَنَحْوُ: زَيْدٌ حَسَنٌ وَجْهُهُ .

سُبِّهَتْ بِاسْمِ الْفَاعِلِ مِنْ حَيْثُ أَنَّهَا تُتَنَّى وَتُجْمَعُ وَتُذَكَّرُ وَتُؤَنَّثُ وَصِيغَتُهَا
مُخَالَفَةٌ لِصِيغَةِ اسْمِ الْفَاعِلِ.

6. المضاف

وَهُوَ كُلُّ اسْمٍ أُضِيفَ إِلَى اسْمٍ آخَرَ. فَالْأَوَّلُ يَجْرُ الثَّانِي وَيُسَمَّى الْأَوَّلُ
مُضَافًا وَالثَّانِي مُضَافًا إِلَيْهِ. وَالْإِضَافَةُ إمَّا بِمَعْنَى اللَّامِ. نَحْوُ:

غُلَامٌ زَيْدٍ.

أَوْ بِمَعْنَى مِنْ. نَحْوُ:

خَاتَمٌ فَضَّةٍ.

أَوْ بِمَعْنَى فِي. نَحْوُ:

ضَرَبُ الْيَوْمِ.

7. الاسم التام

وَهُوَ كُلُّ اسْمٍ مُسْتَعْنٍ عَنِ الْإِضَافَةِ. فَهَذَا الْاسْمُ تَنْصِبُ الْمُمَيِّزَ وَتَمَامِيَّتُهُ بِأَحَدٍ مِنْ أَرْبَعَةِ أَشْيَاءَ.

1. هُوَ التَّنْوِينُ؛ نَحْوُ:

عِنْدِي رَاقِدٌ خَلًّا.

2. نُونُ التَّنْيَةِ؛ نَحْوُ:

عِنْدِي مَنَوَانٍ سَمْنًا، قَفِيرَانِ بَرًّا.

3. وَنُونُ الْجَمْعِ. نَحْوُ:

عِنْدِي عِشْرُونَ دِرْهَمًا.

4. وَالْإِضَافَةُ. نَحْوُ:

عِنْدِي مَلَأُ الْإِنَاءِ عَسَلًا .

وَيُسَمَّى الْمَنْصُوبُ تَمْيِيزًا وَهُوَ مَا يَرْفَعُ الْإِبْهَامَ عَنْ مُفْرَدٍ أَوْ عَنْ جُمْلَةٍ.
نحو: طَابَ زَيْدٌ نَفْسًا.

العواملُ المَعْنَوِيَّةُ

المَعْنَوِيَّةُ مِنْهَا عَدَدَانِ:

١. الأوَّلُ: العاملُ فِي المُبْتَدَأِ والخَبَرِ أَيْ عاملُ الرَّفْعِ وَهُوَ تُجَرِّدُهُمَا عَنِ
العواملِ اللَّفْظِيَّةِ لِلإِسْنَادِ. نَحْوُ:

الْعِلْمُ حَسَنٌ وَالْجَهْلُ قَبِيحٌ.

٢. والثَّانِي - العاملُ فِي الفِعْلِ الْمُضَارِعِ أَيْ عاملُ الرَّفْعِ وَهُوَ وَقُوعُهُ مَوْقِعَ
الاسْمِ. نَحْوُ:

«زَيْدٌ يَضْرِبُ» فِي مَوْقِعِ «زَيْدٍ ضَارِبٍ».

فَهَذِهِ مائَةٌ عاملٍ لَا يَسْتَعْنِي الصَّغِيرُ وَالْكَبِيرُ عَنْ مَعْرِفَتِهَا، وَاسْتِعْمَالُهَا
عَلَى حَسَبِ مَا بَيَّنَّاهُ.

NAHVDA YUZTA OMIL

Nahv ilmida yuzta omil¹ bor. Ular lafziy² va ma'naviy³ omillardir.

Lafziy omillar ikkiga bo'linadi:

1. Samoiy⁴.

2. Qiyosiy⁵.

Samoiy omillar to'qson bitta. Qiyosiy omillar esa yettita.

Ma'naviy omillar ikkiga ajratiladi.

Samoiy omillar o'n uch turga taqsimlanadi:

BIRINCHI TUR

Bu turdagi harflar⁶ faqat ismlarni qaratqich kelishigida bo'lishini talab qiladi. Ular o'n yettita harfdan iborat.

حُرُوفُ نَجَرِ الْأَسْمَاءِ فَقَطْ

علي		الباء
عن		من
الكاف		إلى
مذ، منذ		فى
الواو		حَتَّى
التاء		اللام
حاشا		رُبَّ
خلا، عدا		

1. بِ - ko'makchisi

Yondashtirish⁷ ma'nosini ifodalash; masalan:

مَرَرْتُ بِزَيْدٍ.

Zaydning oldidan o'tdim.

وِيهِ دَاءٌ.

Unda kasallik bor (ya'ni, u kasal).

Fe'lni o'timli qilish⁸; masalan:

ذَهَبْتُ بِزَيْدٍ.

Zaydni olib ketdim.

Ish-harakatni biror vosita yordamida bajarilishini ifodalash;
masalan:

كَتَبْتُ بِالْقَلَمِ.

Ruchka bilan (ruchkada) yozdim.

Hamrohlikni (birgalikni) ifodalash uchun; masalan:

دَخَلْتُ عَلَيْهِ بِثِيَابِ السَّفَرِ.

Uning oldiga safar kiyimida (safar kiyimi bilan birga) kirdim.

Qiyoslab solishtirishni ifodalash uchun; masalan:

بِعْتُ هَذَا بِهَذَا.

Buni bunchaga sotdim.

O'rin holini⁹ ifodalash uchun; masalan:

جَلَسْتُ بِالْمَسْجِدِ أَيَّ فِي الْمَسْجِدِ.

Masjidda (ya'ni, masjidning ichida) o'tirdim.

Qasamni ifodalash uchun; masalan:

بِاللَّهِ، لَا فَعَلَنَ كَذَا.

Allohga qasamki, albatta shunday qilaman.

Ma'no anglatmaydigan, ortiqcha¹⁰ ko'makchi vazifasi;
masalan:

لَا تُلْقُوا بِأَيْدِيكُمْ إِلَى التَّهْلُكَةِ. (Baqara s. 195)

O'zlaringizni o'z qo'llaringiz bilan tahlikaga tashlamang.

كَفَى بِاللَّهِ شَهِيدًا (Ra'd s.43)

Alloh yetarli guvohdir.
Sababni ifodalash; masalan:

ضَرَبْتُ زَيْدًا بِالسُّوءِ

Zaydni yomonligi uchun urdim.

2. ko'makchisi مِنْ

Maqsadning boshlanish joyini ifodalash uchun; masalan:

سِرْتُ مِنَ الْبَصْرَةِ إِلَى الْكُوفَةِ.

Basradan Kufaga ketdim.

Maqsadning boshlanish vaqtini ifodalash uchun; masalan:

صُمْتُ مِنْ يَوْمِ الْجُمُعَةِ إِلَى السَّبْتِ.

Juma kunidan shanbagacha ro'za tutdim.

Bo'laklarga ajratish¹¹ni ifodalash uchun; masalan:

أَخَذْتُ مِنَ الْمَالِ.

Moldan (bir qismini) oldim.

(Ko'makchidan avvalgi so'zni) izohlash uchun¹²; masalan:

فَاجْتَنِبُوا الرَّجْسَ مِنَ الْأَوْثَانِ. (س. الحج، ٣٠)

Butlardan iborat najosatdan yiroq bo'ling.

Ma'no anglatmaydigan¹³ko'makchi; masalan:

مَا جَاءَنِي مِنْ أَحَدٍ.

Menikiga birortasi ham kelmadi.

3. ko'makchisi إِلَى

Maqsadning tugash joyini ifodalash uchun; masalan:

سِرْتُ مِنَ الْبَصْرَةِ إِلَى الْكُوفَةِ.

Basradan Kufaga ketdim.

Maqsadning tugash paytini ifodalash uchun; masalan:

أَتَمُّوا الصَّيَّامَ إِلَى اللَّيْلِ . (Baqara s. 187)

Ro'zani kechgacha mukammal tutingizlar.

Ba'zan “ مع (bilan, birga)” ma'nosini ifodalaydi; masalan:

لَا تَأْكُلُوا أَمْوَالَهُمْ إِلَى أَمْوَالِكُمْ . (Niso s.2) أَيَّ مَعَ أَمْوَالِكُمْ .

Ularning mollarini o'zingizning mollaringiz bilan (qo'shib) yemanglar.

فَاغْسِلُوا وُجُوهَكُمْ وَأَيْدِيَكُمْ إِلَى الْمَرَافِقِ . (Moida s. 6)

Yuzlaringizni va qo'llaringizni tirsaklaringiz bilan (qo'shib) yuvinglar.

4. ko'makchisi في

O'rin holini ifodalash uchun;¹⁴ masalan:

زَيْدٌ فِي الدَّارِ .

Zayd hovlidadir, ya'ni hovlining ichidadir.

نَظَرْتُ فِي الْكِتَابِ .

Kitobga (kitobning ichiga) qaradim.

Ba'zan عَلَى ma'nosini ham ifodalashi mumkin, masalan:

لَأَصْلَبَنَّكُمْ فِي جُدُوعِ النَّخْلِ . (Toho s. 71) أَيَّ عَلَى جُدُوعِ النَّخْلِ .

Sizlarni xurmo shohlariga osurman.

5. ko'makchisi حَتَّى

Maqsadning tugashini bildiradi. U o'zidan keyingi so'zni qaratqich kelishigiga o'tkazib, oldingi so'zning bir qismi ekanini ifodalaydi, masalan:

أَكَلْتُ السَّمَكَةَ حَتَّى رَأْسِهَا¹⁵

Baliqni boshigacha yedim, ya'ni baliqni boshini ham yedim.

Maqsadning tugashini ifodalaydi. Bunda ko'makchidan keyin kelayotgan so'z ma'no jihatidan avvalgi so'zning bir bo'lagi bo'lib emas, balki uning davomi sifatida bog'lanadi¹⁶, masalan:

نِمْتُ الْبَارِحَةَ حَتَّى الصَّبَاحِ.

Kecha ertalabgacha uxladim.

6. ko'makchisi لِ

Tegishlilik (xoslik)ni ifodalash uchun; masalan:

الْمَالُ لِزَيْدٍ وَالْجُلُ لِلْفَرَسِ.

Mol Zaydniki, yopqich esa otniki.

(Ish-harakatning bajarilish) sababini bildirish uchun; masalan:

صَرَبْتُ زَيْدًا لِلتَّأْدِيبِ.

Zaydni odob berish uchun urdim.

Qasamni ifodalash uchun¹⁷; masalan:

لَلَّهِ لَا يُؤَخِّرُ الْأَجَلَ.

Allohga qasamki, muddatni (ajalni) kechiktirmaydi.

Ma'no anglatmaydigan ko'makchi sifatida qo'llanadi, masalan:

رَدِفَ لَكُمْ¹⁸ (Naml s.72) وَلَا أَبَا لَكُمْ.

Sizlarning izingizga tushib qolgandir, otalaringizning emas.

7. رَبُّ ko'makchisi

Cheklashni ifodalaydi, u noaniq holatdagi aniqlanmishga tegishli bo'lib, aniqlovchisi bir so'zdan iborat bo'ladi, masalan:

رَبِّ رَجُلٍ كَرِيمٍ لَقِيتُهُ.

Birgina saxiy odamni uchratdim.

Shuningdek, noaniq holatdagi aniqlanmishga tegishli bo'lib, aniqlovchisi jumladan iborat bo'lishi ham mumkin, masalan:

رَبِّ رَجُلٍ أَبُوهُ مُنْطَلِقٌ لَقِيتُهُ.

Otasi ketgan bir kishini uchratdim.

8. عَلَى ko'makchisi

Biror narsa boshqasining ustidaligini ifodalash uchun,¹⁹ masalan:

زَيْدٌ عَلَى السَّطْحِ.

Zayd tom ustida (tomda).

وَعَلَيْهِ دَيْنٌ.

Uning zimmasida qarz bor (uning qarzi bor).

9. عَنْ ko'makchisi

(Biror narsadan) uzoqlashtirish va (boshqasiga) o'tkazishni ifodalash uchun; masalan:

رَمَيْتُ السَّهْمَ عَنِ الْقَوْسِ إِلَى الصَّيْدِ. وَأَخَذْتُ عَنْهُ الْعِلْمَ. وَأَدَيْتُ عَنْهُ الدَّيْنَ.

Kamondan paykonni o'ljaga otdim (Paykonni kamondan uzoqlashtirib o'ljaga otdim). Undan ilm oldim. Undan qarzni uzdim.

10. ko'makchisi²⁰

O'xshatishni ifodalash uchun; masalan:

زَيْدٌ كَالْأَسَدِ.

Zayd sherdek.

Ma'no anglatmaydigan ko'makchi vazifasini ham bajaradi, masalan:

لَيْسَ كَمِثْلِهِ شَيْءٌ. (Sho'ro s.11)

Uning mislidek biror narsa yo'q.

11-12. ko'makchilari

Ish-harakatning o'tgan zamonda boshlanganini ifodalash uchun²¹; masalan:

مَا رَأَيْتُهَا مُذُ يَوْمِ الْجُمُعَةِ.

Uni juma kundan beri ko'rmadim.

Har ikki ko'makchi ham son bilan bog'liq bo'lgan barcha muddatni ifodalaydi, masalan:

مَا رَأَيْتُهُ مُذُ ثَلَاثَةِ أَيَّامٍ وَمُنْذُ ثَلَاثَةِ أَيَّامٍ.

Uni uch kundan beri ko'rmadim.

13. yuklamasi

Qasamni ifodalash uchun; u faqat zohir – ko'rinib turadigan, gap bo'lagi sifatida ishtirok etadigan ismlarga bog'lanib keladi, masalan:

وَاللّٰهِ لَا فُعْلَنَ كَذًا.

Allohga qasamki, shunday qilaman.

14. yuklamasi

Qasamni ifodalaydi va faqat Alloh so'zi bilan ishlatiladi, masalan:

تَاللّٰهِ لَا كَيْدَنَ كَذًا.

Allohga qasamki, albatta shunday pand beraman.

15. yuklamasi حاشا

Uzoqlashtirish, ajratish ma'nosini ifodalash uchun; masalan:

أَسَاءَ الْقَوْمُ حَاشَا زَيْدٍ.

Zayddan boshqa butun qavm yomonlik qildi.

16-17. yuklamalari عَدَا va خَلَا

Istisno qilish uchun; masalan:

نَحْوُ: جَاءَنِي الْقَوْمُ خَلَا زَيْدٍ وَعَدَا زَيْدٍ.

Menikiga Zayddan boshqa butun qavm keldi.

Ular fe'l vazifasida kelsa عَدَا زَيْدًا va خَلَا زَيْدًا deyish ham mumkin.

Agar ularga ما qo'shiladigan bo'lsa, ular faqat fe'l deb hisoblanadi.

جَاءَنِي الْقَوْمُ مَا خَلَا زَيْدًا وَمَا عَدَا زَيْدًا.

Zaydni hisoblamaganda butun qavm keldi.

IKKINCHI TUR

Bu turdagi yuklamalar ism²³ni (egani) tushum kelishigida, uning xabari (kesimi)ni esa bosh kelishikda bo'lishini talab qiladi. Ular oltitadir va “fe'lga o'xshash yuklamalar” deb ataladi.

الْحُرُوفُ الَّتِي تَنْصِبُ الْأِسْمَ وَتَرْفَعُ الْخَبَرَ

لَكِنْ	إِنَّ
لَيْتَ	أَنَّ
لَعَلَّ	كَأَنَّ

1. إِنَّ yuklamasi

Gap mazmunini ta'kidlash uchun; masalan:

إِنَّ زَيْدًا مُنْطَلِقٌ.

Zaydning ketgani haqiqatdir. Haqiqatda Zayd ketdi.

Unga ²⁴مَا الْكَافَّةُ qo'shilsa, yuklama o'z ta'sirini yo'qotadi va ism ham, xabar ham bosh kelishikda bo'ladi, masalan:

إِنَّمَا اللَّهُ إِلَهٌ وَاحِدٌ. (Niso s. 171)

Hech shubhasiz Alloh yakkayu yagonadir.

إِنَّمَا زَيْدٌ مُنْطَلِقٌ.

Zayd haqiqatda ketdi.

2. أَنَّ yuklamasi

Bu yuklama ham gap ma'nosini ta'kidlaydi²⁵, masalan:

بَلَّغْنِي أَنَّ زَيْدًا ذَاهِبٌ.

Menga yetkazishicha, Zayd ketgan.

3. كَانَ yuklamasi

O'xshatishni ifodalash uchun; masalan:

كَأَنَّ زَيْدًا الْأَسَدُ.

Go'yoki Zayd sher.

4. لَكِنْ yuklamasi

Zidlash ma'nosini anglatadi; u bo'lishli hamda bo'lishsiz gaplarning o'rtasida ishlatiladi, masalan:

مَا جَاءَنِي زَيْدٌ لَكِنَّ عَمْرًا حَاضِرٌ.

Menikiga Zayd kelmadi, lekin Amr keldi.

جَاءَنِي زَيْدٌ لَكِنَّ عَمْرًا لَمْ يَجِئْ.

Menikiga Zayd keldi, lekin Amr kelmadi.

5. لَيْت yuklamasi

Orzu-istakni hamda armonni ifodalash uchun; masalan:

لَيْتَ زَيْدًا عَابِدٌ.

Qaniydi Zayd ibodatxon bo'lsa.

لَيْتَ الشَّبَابَ يَعُودُ.

Qaniydi, yoshlik qaytsa!

6. لَعَلَّ yuklamasi

Umid qilish, o'tinch ma'nolarini anglatishda qo'llanadi va faqat bo'lishli gaplar tarkibida ishlatiladi, masalan:

لَعَلَّ زَيْدًا عَابِدٌ.

Balki Zayd ibodatxon bo'lar.

UCHINCHI TUR

Bu turga ليس ko'makchi fe'liga o'xshagan 2 yuklama kiradi, ular: ما va لا yuklamalaridir. Bu yuklamalar ismni bosh kelishikda, xabarni esa tushum kelishikda bo'lishini talab qiladi.

“ما” yuklamasi aniq va noaniq holatdagi ism (ega)lar bilan



qo'llanilishi mumkin, masalan:

مَا زَيْدٌ قَائِمًا وَمَا رَجُلٌ قَاعِدًا.

Zayd turgani yo'q, boshqa odam ham o'tirgani yo'q.


„لا“ esa faqat noaniq holatdagi ism (ega) bilan qo'llanadi, masalan:

لَا رَجُلٌ أَفْضَلُ مِنْكَ.

Sendan afzal odam yo'q.

TO'RTINCHI TUR

Bu yuklamalar faqat o'zidan keyin kelayotgan otni tushum kelishigida bo'lishini talab qiladi. Ular yettita yuklamadir:



1. yuklamasi و

“مع” “bilan”, “birga” ko'makchisi ma'nosini ifodalaydi. Bu yuklamadan avval fe'l keladi, masalan:

اسْتَوَى الْمَاءُ وَالْخَشَبَةَ .

Suv yog'och (ko'prik) bilan tenglashdi.

Fe'l ma'nosini ham ifodalaydi²⁶; masalan:

مَا شَأْنُكَ وَزَيْدًا أَيَّ مَا تَصْنَعُ وَزَيْدًا.

Zayd bilan nima ishing bor, ya'ni, Zaydni nima qilasan?

2. yuklamasi إلا

إلا – istisno qilish uchun; u o'zidan oldingi gap bo'lagiga bog'lanib, uning bir qismini istisno qiladi, masalan:

جَاءَنِي الْقَوْمُ إِلَّا زَيْدًا.

Menikiga qavm keldi, Zayddan tashqari. Ya'ni: Menikiga Zayddan boshqa butun qavm keldi.

O'zidan oldingi gap bo'lagiga bog'lanib, u bilan bog'liq bo'lmagan narsani ham istisno qiladi, masalan:

جَاءَنِي الْقَوْمُ إِلَّا حِمَارًا.

Menikiga butun qavm keldi, eshakdan tashqari²⁷. Ya'ni: Menikiga butun qavm eshaksiz keldi.

3. يا yuklamasi

Yaqindagi yoki uzoqdagi odamga murojaat qilish uchun; masalan:

يَا رَجُلًا، خُذْ بِيَدِي.

Ey odam, qo'limni ushla.

يَا عَبْدَ اللَّهِ وَيَا طَالِعًا جَبَلًا.

Hov Abdullo, hov toqqa chiqayotgan odam.

4. هيا yuklamasi

Uzoqdagi odamga murojaat qilish uchun; masalan:

هَيَّا رَجُلًا، خُذْ بِيَدِي.

Ey odam, qo'limni ushla.

هَيَّا عَبْدَ اللَّهِ وَهَيَّا طَالِعًا جَبَلًا.

Hoy Abdullo, hoy toqqa chiqayotgan odam.

5. يَا yuklamasi

Bu yuklama ham uzoqdagi odamga murojaat qilishda ishlatiladi, masalan:

يَا رَجُلَا، خُذْ بِيَدِي.

Ey odam, qo'limni ushla.

يَا عَبْدَ اللَّهِ وَأَيَا طَالِعًا جَبَلَا

Hoy Abdullo, hoy toqqa chiqayotgan odam.

6. أَيُّ yuklamasi

Yaqindagi odamga murojaat qilish uchun, masalan:

أَيُّ رَجُلَا، خُذْ بِيَدِي.

Ey odam, qo'limni ushla.

أَيُّ عَبْدَ اللَّهِ وَأَيُّ طَالِعًا جَبَلَا.

Abdullo, toqqa chiqayotgan odam.

7. “أ” yuklamasi

Yaqindagi odamga murojaat qilish uchun, masalan:

أَرْجُلَا، خُذْ بِيَدِي.

Ey odam, qo'limni ushla.

أُ عَبْدَ اللَّهِ وَأُ طَالِعًا جَبَلَا

Abdullo, toqqa chiqayotgan odam.

BESHINCHI TUR

Bu yuklamalar hozirgi-kelasi zamondagi fe'lni istak mayli shaklida bo'lishini talab qiladi. Ular to'rttadir:



1. أَنْ yuklamasi

Kelasi zamonga tegishli mazmunni ifodalash uchun; masalan:

أُحِبُّ أَنْ تَقُومَ.

Turishingni istayman.

2. لَنْ yuklamasi

Kelgusi zamonga tegishli inkorni ta'kidlash uchun; masalan:

لَنْ أَبْرَحَ الْأَرْضَ حَتَّى يَأْذَنَ لِي أَبِي. (Yusuf s. 80)

Otam menga ruxsat bermagunlaricha bu yerdan ketmayman.

3. كِي yuklamasi

O'zidan keyin kelayotgan so'z yordamida oldingi so'zning sababini izohlaydi, masalan:

أَسْلَمْتُ كَيْ أَدْخَلَ الْجَنَّةَ.


Jannatga kirishim uchun musulmon bo'ldim.

4. إذن yuklamasi

Javob berish orqali mukofotlashni ifodalaydi, “Sizning oldingizga kelaman” degan odamga “unda Sizga izzat-ikrom ko'rsataman, (unday bo'lsa, boshim osmonga yetardi) deganidek, chiroyli javob berishing bilan uni mukofotlagan bo'lasan.

OLTINCHI TUR

Bu yuklamalar hozirgi-kelasi zamondagi fe'lni shart mayli shaklida bo'lishini talab qiladi²⁸. Ular beshtadir:



1. إِنْ yuklamasi

Shart qo'yish va unga javob berishni ifodalaydi,²⁹ masalan:

إِنْ تُكْرِمْنِي أُكْرِمَكَ

Meni hurmat qilsang, seni ham hurmat qilaman.

2. لَمْ yuklamasi

O'tgan zamondagi bo'lishsizlikni ifodalash uchun;³⁰ masalan:

لَمْ يَضْرِبْ زَيْدٌ.

Zayd urmadi!

3. لَمَّا yuklamasi

O'tgan zamondagi ish-harakatning hanuzgacha tugamaganini ifodalaydi,³¹ masalan:

لَمَّا يَضْرِبُ زَيْدٌ.

Zayd hali urmadi.

4. لَامُ الأَمْرِ

Buyruq shaklini ifodalovchi لِ -li yuklamasi³²; masalan:

لِيَضْرِبْ زَيْدٌ.

Zayd ursin!

5. لا النَهْيِ

Ta'qiqni ifodalash uchun ishlatiladigan لَا³³; masalan:

لَا تَضْرِبْ زَيْدًا.

Zaydni urma!

YETTINCHI TUR

Hozirgi-kelasi zamon fe'lini **إِنْ** yuklamasi ma'nosida shart mayli shaklida bo'lishini talab qiladigan ismlar, ular to'qqiztadir:



1. مَنْ – kim ma'nosidagi ism, masalan:

مَنْ يُكْرِمُنِي أَكْرِمُهُ أَيَّ إِنْ يُكْرِمُنِي زَيْدٌ أَكْرِمُهُ.

Kim meni hurmat qilsa, men ham uni hurmat qilaman. Ya'ni, Zayd meni hurmat qilsa, men ham uni hurmat qilaman.

2. مَتَى – “qachonki” ma'nosidagi ism, masalan:

مَتَى تَخْرُجُ أَخْرُجُ أَيَّ إِنْ تَخْرُجُ غَدًا أَخْرُجُ غَدًا.

Qachon chiqsang, o'shanda chiqaman, ya'ni agar ertaga chiqsang, men ham ertaga chiqaman.

3. مَا – “nima” ma'nosidagi ism, masalan:

مَا تَصْنَعُ أَصْنَعُ أَيَّ إِنْ تَصْنَعُ هَذَا أَصْنَعُ هَذَا.

Nima yasasang, shuni yasayman, ya'ni buni yasasang, men ham shuni yasayman.

4. حَيْثُمَا – “Qayda bo'lmasin, qayerda” ma'nosidagi ism, masalan:

حَيْثُمَا تَقْعُدُ أَقْعُدُ أَيُّ إِن تَقْعُدُ فِي الْبَيْتِ أَقْعُدُ فِي الْبَيْتِ.

Qayerda o'tirsang, o'sha yerda o'tiraman, ya'ni uyda o'tirsang men ham uyda o'tiraman.

5. مَهْمَا – “Qachonki” ma'nosidagi ism, masalan:

مَهْمَا تَذْهَبُ أَذْهَبُ أَيُّ إِن تَذْهَبُ غَدًا أَذْهَبُ غَدًا.

Qachonki borsang, o'shanda boraman, ya'ni ertaga borsang, men ham ertaga boraman.

6. أَيْنَمَا – “Qayerdagi” ma'nosidagi ism, masalan:

أَيْنَمَا تَجْلِسُ أَجْلِسُ أَيُّ إِن تَجْلِسُ فِي الْبَيْتِ أَجْلِسُ فِي الْبَيْتِ.

Qayerda o'tirsang, o'sha yerda o'tiraman, ya'ni uyda o'tirsang, men ham uyda o'tiraman.

7. أَيْنَ³⁴ – “qayerda” ma'nosidagi ism, masalan:

أَيْنَ تَكُنْ أَكُنْ أَيُّ إِن تَكُنْ فِي الْبَلَدِ أَكُنْ فِي الْبَلَدِ.

Qayerda bo'lsang, men ham o'sha yerda bo'laman, ya'ni agar shaharda bo'lsang, men ham shaharda bo'laman.

8. أَيُّ – “Qay biri” ma'nosidagi ism, masalan:

أَيُّهُمْ يَشْتُمْنِي أَشْتُمُهُمُ أَيُّ إِن يَشْتُمْنِي زَيْدٌ أَشْتُمُهُ.

Ularning qaysi biri meni haqorat qilsa, men ham uni haqoratlayman, ya'ni meni Zayd haqoratlasa, men ham uni haqorat qilaman.

9. إِذَا – “Qachonki, istagan vaqtda” ma'nosidagi ism, masalan:

إِذَا تَفْعَلُ أَفْعَلُ أَيُّ إِن تَفْعَلِ الْخِيَاطَةَ أَفْعَلِ الْخِيَاطَةَ.

Qachon nima qilsang, men ham shuni qilaman, ya'ni agar tikuvchilik qilsang, men ham tikuvchilik qilaman.

SAKKIZINCHI TUR

Noaniq holatdagi ismlarni cheklash (aniqlashtirish) yo'li bilan tushum kelishigida bo'lishini talab qiladigan ismlar, ular to'rttadir:



1. 10 soni; uni 1 soniga qo'shib, 99 gacha davom ettirilsa³⁵, masalan:

أَحَدَ عَشَرَ رَجُلًا وَاحِدَى عَشْرَةَ امْرَأَةً إِلَى تِسْعَةٍ وَتِسْعِينَ رَجُلًا وَتِسْعَ وَتِسْعِينَ امْرَأَةً.

11 ta kishi, 11 ta ayol, 99 ta kishi va 99 ta ayol.

2. So'roq ma'nosini ifodalaydigan كَمْ (qancha?) olmoshi, masalan:

كَمْ رَجُلًا عِنْدَكَ؟

Sening oldingda (huzuringda) qancha odam bor?

3. "Qancha, ko'p" كَأَيِّ³⁶ ma'nosidagi hayratni ifodalaydigan so'z, masalan:

كَأَيِّ رَجُلًا عِنْدَكَ.

Sening oldingda qancha odam bor!

4. "Shuncha" كَذَا ma'nosidagi ism, masalan:

عِنْدِي كَذَا دِرْهَمًا.

Menda shuncha dirham bor.

TO'QQIZINCHI TUR

Bunday so'zlar fe'llarning otlashgan shakllari³⁷ deb nomlanib, ayrimlari (o'zidan keyin kelayotgan so'zni) bosh kelishikda, qolganlari esa tushum kelishigida bo'lishini talab qiladi. Ular to'qqizta so'zdan iborat bo'lib, oltitasi otlarni tushum kelishigiga, fe'llarni esa istak mayliga o'tkazadi:



1. رَوَيْدٌ³⁸

Ish-harakatning sekin bajarilishini ifodalaydigan “أَمْهَلٌ” buyruq maylidagi fe'lning ot shakli deb hisoblanadi, masalan:

رَوَيْدَ زَيْدًا أَيْ أَمْهَلْ زَيْدًا.

Sekin-sekin Zayd, Zayd shoshilma.

2. بُلْهٌ

“دُغ – qoldir” ma'nosidagi buyruq shaklidagi fe'lning otidir³⁹, masalan:

بَلِّغْ زَيْدًا أَيَّ دَعْوَى زَيْدًا.

Zaydni qoldir, ya'ni Zaydni qo'yaver.

3. دُونَكَ

خُذْ – buyruq fe'lining ot shakli bo'lib, “mana senga! mana ol!” ma'nosida tarjima qilinadi, masalan:

دُونَكَ زَيْدًا أَيَّ خُذْ زَيْدًا

Mana senga Zayd, mana, Zaydni ol.

4. عَلَيْكَ

Majburiyat qilib yuklash “lozim tut, kerak, zarur” ma'nosidagi buyruq fe'lining ot shakli; masalan:

عَلَيْكَ زَيْدًا أَيَّ الزَّمْ زَيْدًا.

Zaydni lozim tut (hisobga ol), ya'ni Zaydning xavfsizligi sening zimmangda (majburiyatingdir).

5. هَا⁴⁰

“Mana ol” ma'nosidagi buyruq fe'lining ot shakli; masalan:

هَازَيْدًا أَيَّ خُذْ زَيْدًا.

Mana Zayd!, ya'ni: Mana ol, Zaydni!

6. حَيْهَلْ⁴¹

إِيْت – “bajar, qil” buyruq shaklidagi fe'lning ismidir, masalan:

حَيْهَلْ الصَّلَاةَ أَيَّ إِيْتِ الصَّلَاةَ.

Namozga shoshil, ya'ni namozga kel!

**Eganing bosh kelishikda turishini talab
qiluvchi ismlar esa uchta⁴².**

1. هَيَّهَاتَ

“بَعْدَ – uzoqlashdi” ma'nosidagi fe'lning ot shakli; masalan:

هَيَّهَاتَ زَيْدٌ أَيْ بَعْدَ زَيْدٍ.

Zayd buncha uzoqda, ya'ni Zayd uzoqlashdi.

2. سُرْعَانَ

“سُرْعَ – tezlashdi, shoshdi” ma'nosidagi fe'lning ot shakli,
masalan:

سُرْعَانَ زَيْدٌ أَيْ سُرْعَ زَيْدٍ.

Zayd buncha tez, ya'ni Zayd shoshdi.

3. شَتَّانَ


“اِفْتَرَقَ – ajraldi, farqlandi” mazmunidagi fe'lning ot shakli;
masalan:

شَتَّانَ زَيْدٌ وَعَمْرُوٌ أَيْ اِفْتَرَقَ زَيْدٌ وَعَمْرُوٌ.

Zayd bilan Amr turlicha, farqli (har-xil), ya'ni Zayd bilan Amr farqlandi.

O'NINCHI TUR

Ega (ism)ni bosh kelishikda, kesim (xabar)ni esa tushum kelishigida bo'lishini talab qiladigan yordamchi fe'llar⁴³, ular o'n uchtaadir.



1. كان **fe'li**,⁴⁴ masalan:

كَانَ اللَّهُ عَلِيمًا حَكِيمًا. (Niso s. 17)

Alloh biluvchi va hikmatli Zotdir.

Shuningdek, “joylashdi”, “topdi” ma'nolaridagi to'liq fe'l vazifasini ham ifodalashi mumkin⁴⁵, masalan:

كَانَ زَيْدٌ أَيْ وَقَعَ زَيْدٌ

Zayd bo'ldi, ya'ni Zayd joylashib bo'ldi.

Ma'no anglatmaydi,⁴⁶ masalan:

كَيْفَ نَكَلَّمُ مَنْ كَانَ فِي الْمَهْدِ صَبِيًّا. (Maryam s. 29)

Axir beshikdagi go'dak bilan qanday so'zlashurmiz.

“صَارَ – aylandi” fe'li ma'nosini ham ifodalaydi, masalan:

كَانَ زَيْدٌ غَنِيًّا أَيْ صَارَ زَيْدٌ غَنِيًّا.

Zayd boy bo'ldi, ya'ni Zayd boyga aylandi.

Fe'l tarkibida damirush sha'n⁴⁷ ham bo'lishi mumkin, masalan:

كَانَ زَيْدٌ قَائِمٌ.

Zayd turgan edi.

2. صَارَ ko'makchi fe'li

Bir holatdan boshqa holatga ko'chib o'tish, ya'ni aylanib qolish ma'nosini ifodalash uchun; masalan:

صَارَ الْفَقِيرُ غَنِيًّا.

Kambag'al boy bo'lib qoldi.

وَصَارَ الطَّيْنُ خَرْفًا.

Loy sopol idishga aylandi.

Hech qachon “Alloh bilguvchi dono bo'lib qoldi” deb bo'lmaydi⁴⁸.

3. أَصْبَحَ ko'makchi fe'li

أَصْبَحَ – jumlaning umumiy mazmunini tong bilan bog'laydi, ya'ni “tongda bo'lib qoldi, tongda aylandi” deb tushuniladi, masalan:

أَصْبَحَ زَيْدٌ عَالِمًا.

Zayd (tongda) olim bo'lib yetishdi.

صَارَ – (biror holatga) aylanish ma'nosini ham ifodalaydi, masalan:

أَصْبَحَ الْمَرِيضُ صَحِيحًا.

Kasal odam sog'lom bo'lib qoldi.

Tongga kirmoq ma'nosini ham ifodalab keladi, masalan:

أَصْبَحَ زَيْدٌ أَيْ دَخَلَ فِي الصُّبْحِ.

Zayd tongga ottirdi, ya'ni, Zayd tongga kirdi.

4. أَضْحَى ko'makchi fe'li

Jumla mazmunini choshgoh vaqti bilan bog'lash uchun; masalan:

أَضْحَى زَيْدٌ كَرِيمًا.

Zayd saxiy bo'ldi, ya'ni Zayd choshgohda saxiy bo'lib qoldi.

صار (aylanmoq, bo'lib qolmoq) ma'nosini ham ifodalaydi. Masalan:

أَضْحَى الْأَمِيرُ أَسِيرًا.

Amir (choshgohda) asir bo'ldi(tushdi).

Oqshomga kirib boshlash ma'nosida ham ishlatiladi. Masalan:

أَضْحَى زَيْدٌ أَيْ دَخَلَ زَيْدٌ فِي الضُّحَى.

Zayd kech qildi, ya'ni Zayd oqshomga yetdi.

5. أَمْسَى ko'makchi fe'li

Gap mazmunini oqshom vaqti bilan bog'lash uchun; masalan:

أَمْسَى زَيْدٌ عَالِمًا.

Zayd (kechqurun) olim bo'ldi, ya'ni Zayd oxir-oqibat olim bo'ldi.

صار (aylanmoq, bo'lib qolmoq) ma'nosida ham ishlatiladi, masalan:

أَمْسَى الدَّلِيلُ عَزِيرًا.

Bo'ysungan (kechqurun) aziz bo'ldi, ya'ni itoatkor oxiri aziz bo'ldi.
Oqshomga kirib borish ma'nosini ham ifodalab keladi.

أَمْسَى زَيْدٌ أَيْ دَخَلَ زَيْدٌ فِي الْمَسَاءِ.

Masalan: *Zayd qosh qoraytirdi, ya'ni Zayd oqshomda kirdi.*

6. ظَلَّ ko'makchi fe'li

Gap mazmunini kunduz kun bilan bog'lab ifodalash uchun;
masalan:

ظَلَّ زَيْدٌ قَائِمًا.

Zayd kun bo'yi tik turdi, ya'ni Zayd turishda davom etdi.

صار (aylanmoq, bo'lib qolmoq) ma'nosida ham ishlatiladi,
masalan:

ظَلَّ الصَّبِيُّ بِالْغَا.

Bola voyaga yetdi.

7. بَاتَ ko'makchi fe'li

Gap mazmunini tun bilan bog'lash uchun; masalan:

بَاتَ زَيْدٌ عَابِدًا.

Zayd (tunda) ibodatxon bo'ldi, ya'ni Zayd tunda ibodat qildi.

صار (aylanmoq, bo'lib qolmoq) ma'nosida ham ishlatiladi,
masalan:

بَاتَ الْحَزِينُ فَرِحًا.

Xafa odam xursand bo'lib qoldi.

8-9-10-11. ko'makchi fe'llari ما زَالَ, ما زالَ, ما برحَ, ما فتىَ

Bu fe'llar ismlar (ega) haqida ma'lumot beradigan xabarlarining
(kesim) mazmunining belgilangan muddatda davom etishini
ifodalaydi, masalan:

Zayd saxiylikda davom etayapti – مَا زَالَ زَيْدٌ كَرِيمًا.

Zayd olijanob bo'lishda davom etayapti – مَا بَرَحَ زَيْدٌ جَوَادًا .

Zayd mehribonlikni to'xtatmadi – مَا فَتِيَ زَيْدٌ رَحِيمًا .

Zayd olim bo'lishdan bo'shamadi – مَا انْفَكَ زَيْدٌ عَالِمًا .

12. ko'makchi fe'li مَا دَامَ

Xabar (kesim)ni o'z ismi (ega)ga bog'lab, uni ma'lum bir muddat oralig'ida bo'lishini belgilaydi, masalan:

اجْلِسْ وَمَا دَامَ زَيْدٌ جَالِسًا أَيِ اجْلِسْ مُدَّةَ جُلُوسِ زَيْدٍ .

Zayd o'tirgan ekan, sen ham o'tir, ya'ni Zayd o'tirgan muddatdagina o'tir.

13. ko'makchi fe'li لَيْسَ

Gap mazmunini hozirgi zamonda inkor qilish uchun; masalan:

لَيْسَ زَيْدٌ قَائِمًا .

Zayd tik turmayapti.

Agar bu fe'llardan birortasi zamonlarda yoki mayllarda o'zgaradigan bo'lsa, fe'lning ta'siri va bajaradigan vazifasi avvalgidek qolaveradi.

O'N BIRINCHI TUR

Yaqinlikni ifodalaydigan fe'llar ismni (egani) bosh kelishikka, xabarni esa (ot kesimni) tushum kelishigiga qo'yadi, agar xabar fe'l kesim bo'lsa, uni istak mayli shaklida (nasb holati)ga qo'yadi. Ular to'rttadir:



1. عسى ko'makchi fe'li

عسى ko'makchi fe'li xabarning mazmunini ism (ega)ga nisbatan yaqinlashishiga umid qilishni anglatadi, odatda bu ko'makchi fe'lning xabari hozirgi-kelasi zamon shaklida bo'lib, u bilan «أَنْ» yuklamasi yordamida bog'lanadi, masalan:

عَسَى أَنْ يَخْرُجَ زَيْدٌ أَيْ قَارَبَ زَيْدٌ الْخُرُوجَ.

Balki Zayd chiqib qolar, ya'ni, Zaydning chiqishi yaqinlashdi yoki Zayd chiqishga yaqinlashdi.

Agar hozirgi-kelasi zamon fe'li «أَنْ» yuklamasi bilan bog'langan bo'lsa, uning (عسى) ismi – eganing xabarga zarurati qolmaydi, masalan:

عَسَى أَنْ يَخْرُجَ زَيْدٌ أَيْ قَارَبَ خُرُوجَ زَيْدٍ.

Balki Zayd chiqib qolar, ya'ni Zaydning chiqishi yaqinlashdi.

2. كَاد ko'makchi fe'li

كَاد – xabarning mazmuni amalga oshishga yaqinlashayotganini ifodalaydi, uning xabari aniq darajali sifatdosh bilan izohlanadigan hozirgi-kelasi zamon fe'lidir. Masalan:

كَادَ زَيْدٌ يَخْرُجُ أَيَّ كَادَ زَيْدٌ خَارِجًا.

Zayd chiqay deb qoldi, ya'ni Zayd chiquvchi bo'layozdi.

3. كَرَب ko'makchi fe'li

Ism xabar anglatayotgan mazmunni “boshlash”ini ifodalaydi, u كَاد fe'li kabi qo'llanadi. Masalan:

كَرَبَ زَيْدٌ يَخْرُجُ أَيَّ قَرَبَ زَيْدٌ خَارِجًا.

Zaydning chiqishiga oz qoldi, ya'ni Zaydning chiqishiga yaqin qoldi.

4. أَوْشَكَ ko'makchi fe'li

Ismning xabar anglatayotgan mazmunni boshlashga kirishishini anglatadi. U عَسَى va كَاد fe'llari kabi qo'llaniladi. Masalan:

أَوْشَكَ زَيْدٌ أَنْ يَخْرُجَ وَأَوْشَكَ زَيْدٌ يَخْرُجُ.

Zayd chiqay deb qoldi.

O'N IKKINCHI TUR

Maqtash va qarg'ashni ifodalovchi fe'llar “al” artikli bilan aniqlangan turdosh otni yoki “al” artikli bilan aniqlangan turdosh otga aniqlanmish bo'lgan so'zni (izofa birikmasining aniqlanmishi – mudof)ni yoki noaniq holat, tushum kelishigi orqali aniqlab, konkretlashtiradigan (tamyiz) olmoshni bosh kelishikda keltiradi. Ular to'rtta fe'ldir:



1. نِعَمَ ko'makchi fe'li

Umumiy mazmunda (umuman) maqtashni ifodalash uchun; masalan:

نِعَمَ الرَّجُلُ زَيْدٌ.

Zayd qanday ajoyib odam!

نِعَمَ غُلَامَ الرَّجُلِ زَيْدٌ.

Shu kishining xizmatkori Zayd qanday yaxshi odam!

نِعَمَ رَجُلًا زَيْدٌ.

Qanday yaxshi odam – bu Zayd!

2. **ko'makchi fe'li** بِئْسَ

Umumiy mazmunda (umuman) qarg'ashni ifodalash uchun; masalan:

بِئْسَ الرَّجُلُ زَيْدٌ.

Zayd qanday yaramas odam!

بِئْسَ غُلَامَ الرَّجُلِ زَيْدٌ.

Shu kishining xizmatkori Zayd qanday yaramas odam!

بِئْسَ رَجُلًا زَيْدٌ.

Qanday yaramas – bu Zayd.

3. **ko'makchi fe'li** حَيْدًا

“Qanday yaxshi, qanday ajoyib” ma'nosini anglatib, “نِعْمَ” ko'makchi fe'li kabi ishlatiladi; masalan:

حَبَدًا الرَّجُلَ زَيْدٌ.

Zayd qanday yaxshi inson!

4. **ko'makchi fe'li** سَاءَ


U “بِئْسَ” kabi qarg'ashni ifodalaydigan ko'makchi fe'l; masalan:

سَاءَ الرَّجُلُ زَيْدٌ.

Zayd qanday yomon odam!

O'N UCHINCHI TUR

Shubha va ishonchni ifodalaydigan fe'llar, ular gumon ma'nosidagi fe'llar kategoriyasi deb ataladi, bunday fe'llar ikki ismga ta'sir qiladi, ikkinchi ism birinchi ism haqida yanada batafsil ma'lumot beradi va har ikki ismni tushum kelishigiga o'tkazadi. Bu fe'llar yettitadir.



Ularning uchitasi shubhani bildiradi:

1. ظَنَنْتُ – “o'yladim, gumon qildim” ma'nosidagi fe'l; masalan:

ظَنَنْتُ زَيْدًا قَائِمًا.

Zaydni turibdi deb o'yladim.

اِتَّهَمْتُ – “aybladim” fe'li ma'nosida ham ishlatilishi mumkin, bunda u faqat bir ismni tushum kelishigida ishlatilishini talab qiladi.

2. حَسِبْتُ – “hisobladim” mazmunidagi fe’l; masalan:

حَسِبْتُ زَيْدًا عَابِدًا.

Zaydni ibodatxon deb hisobladim (deb o’yladim).

3. خَلْتُ – “xayol qildim” ma’nosidagi fe’l; Masalan:

خَلْتُ زَيْدًا كَرِيمًا.

Zaydni olijanob deb xayol qildim.

Uchtasi esa aniq bilish, ya’ni ishonchni ifodalaydi:

1. عَلِمْتُ – “bildim” fe’li ma’nosida qo’llanadi. Masalan:

عَلِمْتُ زَيْدًا عَالِمًا.

Zaydni olim deb bildim, ya’ni: Zaydning olimligini bildim.

fe’li ma’nosini ham ifodalab kelishi mumkin. Bu holatda u faqat bir ismni tushum kelishigiga o’tkazadi.

2. وَجَدْتُ – “topdim” ma’nosini ifodalab keladi. Masalan:

وَجَدْتُ زَيْدًا حَاضِرًا.

Zayd hozir bo’lganini topdim (bildim).

fe’li ma’nosini ham ifodalashi mumkin, bunda u faqat bitta ismni tushum kelishigiga o’tkazadi.

3. رَأَيْتُ – “ko’rdim” ma’nosini ifodalaydi. Masalan:

رَأَيْتُ زَيْدًا قَائِمًا.

Zaydning turganini ko’rdim.

fe’li ma’nosini ham ifodalashi mumkin va faqat bir ismni tushum kelishigiga o’tqazadi.

Bu fe'llarning yana biri زَعَمْتُ fe'li bo'lib, ayrim vaqtlarda «علمت– bildim» fe'li mazmunida ishonchni, ba'zan esa «ظننت – o'yladim» fe'li kabi gumonni ham ifodalaydi, uning qaysi ma'noni ifodalayotgani qarinasidan farqlanadi. Masalan:


زَعَمْتُ زَيْدًا إِنْسَانًا. زَعَمْتُ زَيْدًا كَرِيمًا.

Zaydni inson deb bildim. Zaydni olijanob deb o'yladim.

QIYOSIY OMILLAR

Qiyosiy omillar yettitadir:

1. To'liq fe'l



To'liq fe'l ikki turga ajratiladi:

1. O'timsiz fe'l

2. O'timli fe'l

O'timsiz fe'l gap tarkibidagi bitta bo'lakni – foil (ega)ni bosh kelishikka o'tkazadi. Masalan:

شَرَفَ زَيْدٌ.

Zayd olijanob bo'ldi.

O'timli fe'llar uch qismga bo'linadi:

1. Bir to'ldiruvchiga ega o'timli fe'l. Masalan:

ضَرَبْتُ زَيْدًا.

Zaydni urdim.

2. Ikki to'ldiruvchiga ega bo'lgan o'timli fe'l, to'ldiruvchilarning ikkinchisi mazmunan birinchi to'ldiruvchiga bog'liq bo'ladi, yoki aksincha, ikkinchi to'ldiruvchi birinчисiga bog'liq bo'lmasligi ham mumkin.

Ikkinchi to'ldiruvchi mazmunan birinчисiga bog'liq. Masalan:

حَسِبْتُ زَيْدًا عَالِمًا.

Zaydni olim deb hisobladim.

Ikkinchi to'ldiruvchi mazmunan birinчисiga bog'liq emas. Masalan:

أَعْطَيْتُ زَيْدًا دِرْهَمًا.

Zaydga dirham berdim.

3. Uchta to'ldiruvchiga ega o'timli fe'l.

أَعْلَمْتُ عَمْرًا زَيْدًا فَاضِلًا.

Masalan: Amrga Zaydning fazilatini bildirdim.

2. Masdar

Fe'ldan yasaladigan ism masdardir. U tanvinlangan bo'lsa o'ziga tegishli fe'l vazifasini bajaradi. Masalan:

عَجَبْتُ مِنْ ضَرْبِ زَيْدٍ عَمْرًا.

Zayd Amrni urganidan hayron qoldim.

Yoki foil (ega)ga mudof (izofaning birinchi bo'lagi – aniqlanmish) bo'lib kelsa ham o'ziga tegishli fe'l vazifasini bajaradi va vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishigida qolaveradi. Masalan:

عَجِبْتُ مِنْ دَقِّ الْقَصَّارِ الشَّوْبِ⁴⁹.

Bo'yovchining kiyimni siqishidan (shibbalashidan) ajablandim.
Maf'ulga (vositasiz to'ldiruvchiga) ham qo'shilishi mumkin.
Bunda foil bosh kelishikda qolaveradi. Masalan:

عَجِبْتُ مِنْ ضَرْبِ اللَّصِّ الْجَلَدُ.

Iallod o'g'rini urishidan ajablandim.

3. Aniq darajali sifatdosh

Aniq darajali sifatdosh fe'ldan yasalgan ism bo'lib, u aniqlanmishga bog'lanib kelish sharti bilan (ya'ni moslashgan aniqlovchi vazifasida) hozirgi va kelgusi zamonni ifodalaydigan fe'l vazifasini bajaradi. Masalan:

مَرَرْتُ بِرَجُلٍ رَاكِبٍ فَرَسَهُ.

Otini minayotgan kishining oldidan o'tdim.

Shuningdek, muftado (ismiy gapning egasi)ga bog'lanish (kesim bo'lish) orqali ham fe'l o'rnida keladi. Masalan:

زَيْدٌ ضَارِبٌ عَمْرًا.

Zayd Amrning uruvchisi (uradi yoki urayapti)

زَيْدٌ قَائِمٌ غَلَامُهُ.

Zayd – uning xizmatkori turibdi.

Holat holi egasiga tobe bo'lib ham fe'l o'rnida keladi. Masalan:

رَأَيْتُ زَيْدًا رَاكِبًا فَرَسَهُ.

Zaydni otini minayotgan holida ko'rdim.

So'roq gap tarkibida ham fe'l vazifasini bajaradi. Masalan:

أَقَائِمُ أَخُوكَ .

Akanq turibdimi?

Agar o'tgan zamon fe'li ma'nosini ifodalasa fe'l vazifasini bajarmaydi. Shuning uchun زَيْدٌ ضَارِبٌ غُلَامَهُ عَمْرًا أَمْسَ – Zayd kecha xizmatkori Amrni uradi (urayapti) deb aytish mumkin emas.

4. Majhul darajali sifatdosh

Majhul darajali sifatdosh fe'ldan yasalgan ism bo'lib, ish-harakat biror so'zga nisbatan bajarilgan bo'ladi. Aniq darajali sifatdosh kabi ikki zamondan (hozirgi va kelasi zamon) biriga bog'lanib keladi. Masalan:

زَيْدٌ مُكْرَمٌ أَصْحَابُهُ الْآنَ أَوْ غَدًا .

Zayd, uning do'stlari hozir hurmat qilinayapti yoki ertaga hurmat qilinadi.

وَمَرَرْتُ بِرَجُلٍ مَضْرُوبٍ غُلَامُهُ الْآنَ أَوْ غَدًا .

Xizmatkori hozir urilayotgan yoki ertaga uriladigan kishining oldidan o'tdim.

وَرَأَيْتُ زَيْدًا مَضْرُوبًا غُلَامُهُ الْآنَ أَوْ غَدًا .

Xizmatkori hozir urilayotgan yoki ertaga uriladigan kishini ko'rdim.

وَأَمَّ مَضْرُوبٌ غُلَامُكَ الْآنَ أَوْ غَدًا .

Xizmatkoring hozir urilayaptimi yoki ertaga uriladimi?

مَا مَضْرُوبٌ غُلَامُكَ الْآنَ أَوْ غَدًا .

Xizmatkoring hozir urilmayapti yoki ertaga urilmaydi.

Agar u o'tgan zamon ma'nosini ifodalasa o'z fe'li vazifasini bajarmaydi.

“ زَيْدٌ مُكْرَمٌ أَصْحَابُهُ أَمْسَ – Zayd, uning do'stlari kecha hurmat qilinadi ” deb aytish mumkin emas.

Aniq va majhul darajali sifatdoshlar yuqoridagi shartlarning biriga asoslanishi shart qilingan. Chunki har ikki sifatdosh omil sifatida kuchsiz bo'lib, ularning har biri o'z fe'li vazifasini bajarishi uchun kuchaytirishga tayanishi zarurdir.

5. Sifatdosh ma'nosidagi sifat

O'timsiz fe'ldan yasalgan har qanday ism bo'lib, fe'l o'sha ism bilan barqarorlik va davomiylik ma'nosini ifodalaydi va o'zi yasalgan fe'li vazifasini to'liq bajaradi. Masalan:

زَيْدٌ كَرِيمٌ أَبَاؤُهُ، كَمَا تَقُولُ زَيْدٌ يُكْرَمُ أَبَاؤُهُ.

Zayd, uning otasi hurmatlanuvchidir, kabi Zayd, uning otalari hurmat qilinadi, deb aytasan.

زَيْدٌ حَسَنٌ وَجْهَهُ .

Zayd chiroyli, uning yuzi chiroylidir.

Bunday so'zlar ikkilik va ko'plikka o'tishi, muzakkar va muannas jinsda o'zgarishiga qarab aniq darajali sifatdoshga o'xshatiladi. Shaklan esa aniq darajali sifatdoshdan farqlanadi.

6. Izofa birikmasining birinchi bo'lagi – aniqlanmish

Mudof har qanday otning boshqa otga qo'shilib kelishidir. Birinchi ot ikkinchi otni qaratqich kelishigiga o'tkazadi va birinchisi mudof – aniqlanmish, ikkinchisi esa mudof ilayh – aniqlovchi deb nomlanadi.

Izofa بِ ya'ni tegishlilik ma'nosida bo'lishi mumkin. Masalan:

غُلَامٌ زَيْدٌ.

Zaydning xizmatkori

Yoki مِنْ ko'makchisi ma'nosida bo'lishi mumkin. Masalan:

خَاتَمٌ فَصَّةٌ – kumush uzuk

Yoki فِي ko'makchisi ma'nosida, ya'ni ma'lum vaqt yoki joy ma'nosini ifodalashi mumkin. Masalan:

صَرَبُ الْيَوْمِ – Bugungi urish

7. To'liq ot

U izofa birikmasi zarur bo'lmaydigan har qanday ismdir. Bu ism mumayyaz – ajratilgan so'zni tushum kelishigiga o'tkazadi va uning to'liqligi to'rt narsaning biri bilan belgilanadi.

1. Tanvin; Masalan:

عِنْدِي رَاقُودٌ خَلَّاءٌ.

Menda bir qadoq (xum) sirka bor.

2. Ikkilikning nuni; Masalan:

عِنْدِي مَنَوَانِ سَمْنًا، وَقَفِيرَانِ بَرًّا.

Menda ikki mann⁵⁰ yog' va ikki qafiz⁵¹ bug'doy bor.

3. Ko'plikni ifodalovchi nun; Masalan:

عِنْدِي عِشْرُونَ دِرْهَمًا.

Menda yigirma dirham bor.

4. Izofa; Masalan:

عِنْدِي مَلَأُ الْإِنَاءِ عَسَلًا.

Menda bir tovoq asal bor.

Tushum kelishigidagi so'z tamyiz – aniqlash (cheklov) deb ataladi va u bir so'z yoki gapdan mavhumlikni yo'qotadi. Masalan:

طَابَ زَيْدٌ نَفْسًا.

Zayd yaxshi bo'ldi.

Ma'naviy omillar

Ma'naviy⁵² omillar ikkita:

1. Muftado (ismiy jumlaning egasi) va xabar (ismiy jumlaning kesimi)ning predikativlik – hukm omili, ya'ni bosh kelishik omili bo'lib, gapning har ikki bo'lagi bir-biriga predikativlik munosabati bilan bog'langani uchun boshqa lafziy omillardan xoli qiladi. Masalan:

الْعِلْمُ حَسَنٌ وَالْجَهْلُ قَبِيحٌ.

Ilm yaxshidir, nodonlik esa yomondir.

2. Hozirgi-kelasi zamon fe'lining omili, ya'ni darak mayli omil bo'lib, ism o'rnida turadi. Masalan:


«زَيْدٌ يَضْرِبُ» فِي مَوْقِعٍ «زَيْدٌ ضَارِبٌ».

"Zayd – زَيْدٌ ضَارِبٌ – Zayd uradi, urayapti" jumlasini "زَيْدٌ يَضْرِبُ" jumlasini o'rniga ishlatiladi.


Bu yuzta omilni kattayu kichik bilmasligining imkoni yo'q. (Ushbu yuzta omilni barcha o'rganuvchi bilishi shart), ularning qo'llanilishi yuqorida sharhlaganimizdek amalga oshiriladi.

Ilova1.

Nahvdagi yuzta omil tasnifi




Samoiy omillar tasnifi



Ilova 3.

Qiyosiy omillar tasnifi



Ilova 4.

Ma'naviy omillar



Ilova 5.


Birdan ortiq ma'noga ega ko'makchilar ko'makchisining ma'nolari

			الباء (ب)
		لِلْأَصَاقِ	
		لِلتَّعْدِيَةِ	
		لِلإِسْعَانَةِ	
		لِلْمُصَاحَبَةِ	
		لِلْمُقَابَلَةِ	
		لِلظَّرْفِيَّةِ	
		لِلْقَسَمِ	
		زَائِدَةٌ	
		لِلسَّبَبِيَّةِ	


مِنْ ko'makchisining ma'nolari

			مِنْ
		لَاِبْتِدَاءِ الْعَالِيَةِ فِي الْمَكَانِ	
		لَاِبْتِدَاءِ الْعَالِيَةِ فِي الزَّمَانِ	
		لِلتَّبَعِيَّةِ	
		لِلتَّبْيِينِ	
		زَائِدَةٌ	


إلى ko'makchisining ma'nolari




في ko'makchisining ma'nolari




حتى ko'makchisining ma'nolari




ر ko'makchisining ma'nolari



على ko'makchisining ma'nolari



ك ko'makchisining ma'nolari




مُد va مُنْذ ko'makchilarining ma'nolari




Ilova 6.

**Birdan ortiq ma'noga ega yuklama
و yuklamasining ma'nolari**



Ilova 7.


**Fe'llar anglatadigan ma'nolar
كان ko'makchi fe'lining ma'nolari**




أصبح ko'makchi fe'lining ma'nolari




أضحى ko'makchi fe'lining ma'nolari



أمسى ko'makchi fe'lining ma'nolari



ظل ko'makchi fe'lining ma'nolari



بات ko'makchi fe'lining ma'nolari



IZOHLAR:

1 Omil – so'zlarning oxirgi harf harakatini o'zgartira oladigan ko'makchi, yuklama va fe'llar.

2 So'z oxiridagi harakat (e'rob)ning o'zgarishiga ta'sir qiladigan so'z lafziy omil deyiladi.

3 Muayyan ma'noni anglatish uchun so'zlarning o'zaro birikishi orqali ifodalanadigan mazmun ma'naviy omil deyiladi.

4 Samoiy omillar – amaliyotda, nutq jarayonida qonuniylashgan so'z, ibora yoki shakl.

5 Qiyosiy omillar – qiyoslab solishtirish jarayonida maxsus qonuniyat asosida shakllangan omil.

6 Arab nahvida so'zlar uchga taqsimlanadi: ism, fe'l va harf. Harf guruhiga ko'makchi, yuklama va bog'lovchilar kiradi. Bu turda harf guruhiga mansub ko'makchilar anglatadigan ma'no yoritilgan.

7 Yondashtirish – bir so'zning mohiyatini boshqa so'zga bog'lash maqsadida ishlatiladi. Yondashtirish ikki xil bo'ladi: haqiqiy va majoziy.

Yuqorida keltirilgan misollarning birinchisi majoziy ma'nodagi yondashtirishdir, chunki so'zlovchining yo'li “Zayd”ning yo'lga yondosh, ya'ni uning yo'li bilan bog'lanishiga ishoradir. Ikkinchi misol esa haqiqiy ma'noda qo'llangan.

8 O'timsiz fe'lni o'timli qilish uchun fe'lga ko'makchi qo'shiladi, shuningdek II (فَعَّلَ) yoki IV bob (أَفْعَلَ) shakliga o'tkaziladi.

9 “في” ko'makchisi odatda, “qayerda?” so'rog'iga javob berib, gapda o'rin holi vazifasini bajaradi. Shuningdek, “nimada?, nimaning ichida?” savoliga javob berib, vositali to'ldiruvchi deb hisoblanishi ham mumkin.

10 Ko'makchilar زَائِدَةٌ – “ortiqcha”, “ma'no anglatmaydigan” deyilsa-da, aslida gapning biror bo'lagiga qo'shilib, o'sha bo'lak

ma'nosini ta'kidlab keladi. Odatda ma'no anglatmaydigan ko'makchi so'roq yoki bo'lishsiz gap tarkibida ko'proq ishlatiladi. Masalan: هل زيد يقائم؟ – Zayd tik turibdimi? ليس زيد يقائم – Zayd tik turmayapti. Ko'makchi qo'shilayotgan so'z gapda qanday vazifani bajarishidan qat'iy nazar, qaratqich kelishigida deb hisoblanadi. Misol tariqasida keltirilgan birinchi oyatdagi بِأَيْدِيكُمْ, ikkinchi oyatdagi بِاللَّهِ so'zlari qaratqich kelishigi shaklida bo'lsa ham بِأَيْدِيكُمْ so'zi grammatik jihatdan vositasiz to'ldiruvchi (الْمَفْعُولُ بِهِ) بِاللَّهِ so'zi esa ega (الْفَاعِلُ) vazifasini bajarayapti. Har ikki so'z faqat shakl jihatidan ko'makchi ta'sirida qaratqich kelishigida deb hisoblanadi. Ko'makchi fe'liy jumlaning egasi va vositasiz to'ldiruvchiga birikib kelayotgani uchun mazmunni ta'kidlash maqsadida orttirilgan ko'makchi deb hisoblanadi.

11 Ko'makchidan avval kelayotgan so'z undan keyin kelayotgan so'zning bir qismi ekanini ifodalaydi, ya'ni مِنْ ko'makchisi “بعض” (ba'zi, ayrim) yoki جُزْءٌ (bo'lak, qism) ma'nolari o'rnida ishlatiladi.

12 ko'makchisi izohlash ma'nosini ifodalaganda الَّذِي nisbiy olmoshi vazifasini bajaradi.

13 ko'makchisi “زائدة” – ma'no anglatmaydigan ko'makchi vazifasini bajarganda undan keyin kelayotgan so'z noaniq holatdagi ot, shuningdek, inkor yoki inkor ma'nosiga o'xshash so'zlar (ta'qiq, ba'zi so'roq olmoshlari) bo'lishini talab qiladi. Yuqorida keltirilgan misolda ko'makchi bo'lishsiz fe'ldan keyin أُحَدَّ so'zi bilan birikib, qat'iy inkor mazmunini ifodalagan.

14 Avval aytib o'tganimizdek, faqat biror joy yoki biror narsaning ichida ma'nosini ifodalashda qo'llanadi.

15 ko'makchisi masalasida olimlar turli fikr bildiradilar. Ba'zi olimlar ko'makchidan keyin kelayotgan ot qaratqich kelishigida bo'lsa, avvalgi so'zga bevosita bog'liq, deb hisoblaydilar va yuqoridagi gapni “*Baliqni, uning boshini ham edim*”, deb tushunish zarurligini aytadilar (*Qarang*: 1. Yusuf Sakkokiy. «مفتاح العلوم» – Livan: 1987. -B.: 101). Boshqa olimlar esa ko'makchidan keyingi so'z avvalgisiga bog'liq bo'lmaydi, deb hisoblab, yuqoridagi misolni

“*baliqni boshigacha yedim*” (boshi yeyilmagan) deb tarjima qilish to'g'riligini ko'rsatadilar. (Qarang: Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osvisheni. -M., 1998. -S. 402) Bu masalani Mustafo G'alayiniy o'zining “جامع الدروس العربية” asarida quyidagicha ta'rif berib batafsil yoritadi: “...ko'makchidan keyingi so'z qaratqich kelishigida bo'lsa va avvalgi so'zning bir bo'lagi deb hisoblansa, har ikki so'z bir-biriga bevosita bog'liq bo'lgani uchun “*Baliqni, uning boshini ham yeb qo'ydim*” deb tarjima qilish to'g'ri. (Qarang: Mustafo G'alayiniy “جامع الدروس العربية”, Livan, 1995, -T.3, -B. 175). bog'lovchi vazifasini bajarganda undan keyingi so'z avvalgi so'z bilan bir xil kelishikda bo'ladi.

16 Mustafo G'alayiniy bu holatni “Ko'makchidan keyingi so'z qaratqich kelishigida bo'lsa ham avvalgi so'zning bir qismi deb hisoblanmasa, bog'lab tarjima qilish mumkin emas” deb izohlaydi va quyidagi misol bilan fikrini davom ettiradi: «قَرَأْتُ» gapini “*Tundan to ertalabgacha o'qidim*” deyish to'g'riligini aytib so'zlovchining ish jarayoni tunda boshlangani va ertalabgacha davom etganini ta'kidlaydi, ya'ni ish-harakat ertalab tugatilganiga urg'u beradi va “tong” so'zi “tun” so'zining bir bo'lagi emas” deb sharhlaydi.

17 “Lom” qasamni ifodalash uchun ishlatilganda , qasamni ifodalovchi yuklama bilan teng deb hisoblanadi va uning harakati fatha bo'lishi talab qilinadi. (Qarang: 1. Yusuf Sakkokiy. «مفتاح العلوم».-Livan: 1987. -B.: 298. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osvisheni. -M., 1998. -S. 398)

18 Oyatda keltirilgan رَدَف fe'li o'timli (متعدد) fe'l bo'lib, o'ziga vositasiz to'ldiruvchi (المنفعل به) qabul qiladi. Oyatda vositasiz to'ldiruvchi mazmuni ta'kidlangani uchun رَدَف لَكُمْ tarzida keltiriladi.

19 “Biror narsaning ustida” ma'nosi ko'makchining haqiqiy ma'nosidir. Uning majoziy ma'nosi ham mavjud bo'lib, bunda “zimmasida” deb tarjima qilish to'g'ri bo'ladi (Qarang: Mustafo G'alayiniy “جامع الدروس العربية”, Livan, 1995, -T.3, -B. 178)

20 Bu ko'makchi o'zidan keyin kelayotgan olmoshni qaratqich kelishigiga o'tkazmaydi. Natijada olmoshning qaratqich kelishigi shakli hisoblangan birikma olmoshlari (الضمائر المتصلة) o'rnida kishilik olmoshlari (الضمائر المنفصلة) tanlanadi. Masalan: “Sen kabi” iborasini كَـكَ (كَـكَ) deyish mumkin emas, balki كَأَنَّكَ (كَأَنَّكَ) deyish lozim.

21 منذ va مَد ko'makchilari hozirgi va kelasi zamon mazmuni bilan bog'lanmaydi.

22 خلا va عدا yuklamalaridan keyin kelayotgan so'z tushum kelishigida ishlatilishi mumkin. Bu holatda har ikki yuklama ham o'tgan zamon shaklidagi «hisoblamoq» ma'nosini ifodalaydigan fe'l deb hisoblanadi (Qarang: Yusuf Sakkokiy: «مفتاح العلوم» –Livan: 1987. -B.:100) va bu yuklamalardan keyin kelayotgan so'z ko'pincha tushum kelishigida ishlatiladi, qaratqich kelishigida ishlatilishi esa kamroq uchraydi, خاشا yuklamasidan keyin kelayotgan so'z esa ko'proq qaratqich kelishigida ishlatiladi (Qarang: Mustafo G'alayiniy “جامع الدروس العربية”, Livan, 1995, -T.3, -B. 142).

23 Ism – إِنَّ va unga o'xshash yuklamalar, shuningdek yordamchi fe'llar egadan oldin kelganida arab nahvi qoidalariga ko'ra gap المبتدأ dan boshlanmagani uchun uning vazifasini bajarayotgan so'zni ism deb nomlanadi.

24 boshqaruvni bekor qiladigan yuklama

25 أَنْ yuklamasi ergashgan gapni bosh gapga bog'lash orqali gap mazmunini ta'kidlaydi.

26 yuklamasi fe'l ma'nosini ifodalashi uchun gap odatda so'roq olmoshi bilan boshlanadi. Fe'l esa taqdirida deb hisoblanadi. (Qarang: Mustafo G'alayiniy. «جامع الدروس العربية», Livan, 1995.–B. 78-79)

27 Keltirilgan misolda eshak qavm bilan birga bo'lishi odatiy hol deb hisoblangani uchun «جاء القَوْمُ إِلَّا الْجَمَارَ» yoki إِلَّا جِمَارًا لَهُمْ va yoki إِلَّا جِمَارَهُمْ deyish to'g'ri bo'lardi. Odatda bu yuklamadan keyin aniq holatdagi so'z istisno qilinadi. Noaniq holatdagi so'z istisno qilinishi uchun u izofa shaklida yoki boshqa so'z bilan aniqlanishi

yohud savol, bo'lishsizlik shakllaridan biriga ega bo'lishi shart.
Masalan:

مَا لَهُمْ بِهِ مِنْ عِلْمٍ إِلَّا اتِّبَاعَ الظُّنِّ . (س. النساء، 157)

U haqda hech qanday bilimlari yo'q, faqat gumonlarga beriladilar, xolos.

فَلَبِثَ فِي قَوْمِهِ أَلْفَ سَنَةٍ إِلَّا خَمْسِينَ عَامًا . (س. العنكبوت، 14)

Bas, u ularning orasida ellik yili kam ming yil turdi.

(Qarang: Mustafu G'alayiniy “جامع الدروس العربية”, Livan, 1995, -T.3, -B. 138).

28 Matnda keltirilgan barcha yuklama (لَمْ، لَمَّا، لَأَمْ، لَا النَّهْيَ) bo'lishli gap tarkibida faqat bitta fe'lning jazm holatida bo'lishini talab qiladi. Agar shartning bo'lishsiz shakli talab qilinsa, unda لَمْ + shakli asosida javob ham jazm holatiga o'tishi mumkin. (Qarang: Mustafu G'alayiniy “جامع الدروس العربية”, Livan, 1995. – T.2. –B. 183-186)

29 yuklamasi stilistik nuqtai nazardan shart ma'nosini ifodalaydigan eng muhim omil deb hisoblanadi. Qolgan yuklama va ismlar esa uning ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi. yuklamasi orqali ifodalangan shart odatda amalga oshmaydigan shartni ifodalashda qo'llanadi, deyiladi.

30 (لَمْ+حالة الجزم) shakli (مَا+الماضي) shakli orqali ifodalanayotgan o'tgan zamondagi ish-harakatning bo'lishsizlik ma'nosini ta'kidlab keladi.

31 yuklamasi bilan ifodalangan bo'lishsizlik hozirgi-kelasi zamonda sodir bo'lishi mumkin. لَمَّا gapini “hali jo'nab ketmadim” deb tushunamiz, demak, jo'nab ketishimiz kutilayotgan bo'ladi. Shuningdek, bu yuklamadan keyin kelayotgan jazm holatidagi fe'l tushirib qoldirilishi ham mumkin. Masalan: قَارِئُ الْمَدِينَةِ وَلَمَّا gapida yuklamadan keyin أُدْخِلَهَا so'zi tushib qolsa ham ma'no o'zgarmay “shaharga yaqinlashib qoldim” deya hali shaharga kirib kelmaganimizni bildiramiz.

32 I va III shaxsga nisbatan buyruq لَ+ حالة الجزم shakli asosida yasaladi. Bu yuklama ko'pincha kasra harakati bilan belgilanadi. Agar undan oldin يَ yoki بُ bog'lovchisi kelsa kasra sukunga aylanadi.

33 Buyruqning bo'lishsiz shaklini ifodalash لا + حالة الجزم shakliga asoslanadi. Buyruqni ifodalaydigan لا hamda ta'qiqni ifodalaydigan لا yuklamalari duo qilish ma'nosini ham ifodalaydi. (Qarang: Mustafo G'alayiniy “جامع الدروس العربية”, Livan, 1995,-T.2, -B.186)

34 أنى shart maylini talab qiladigan ism ma'nosidan tashqari so'roq olmoshi vazifasini ham bajaradi va kontestga qarab مِنْ أَيْنَ؟ – qayerdan?, كَيْفَ؟ – qanday? yoki مَتَى؟ – qachon ma'nolarini ham ifodalab kelishi mumkin. Masalan:

أَنَّى يُحْيِي هَذِهِ اللَّيْلُ بَعْدَ مَوْتِهَا؟ (س. البقرة، 259)

Alloh bu (xarobaga aylangan qishloq ahli)ni qanday tiriltirar ekan?

يَا مَرْيَمُ أَنَّنِي لَكَ هَذَا؟ (س. آل عمران، 37)

Ey Maryam, senga bu narsalar qayerdan keldi?

أَنَّى تَجِيءُ؟ – Qachon kelasan?

35 11 dan 99 gacha bo'lgan sanoq sonlarning sanalmishi noaniq holatda tushum kelishigida kelib, arab nahvida “tamyiz – cheklov, aniqlashtirish, konkretlashtirish” deb ataladi.

36 Bu yuklama nahv ilmida kam ishlatiladi.

37 Bu turdagi barcha otlar fe'lga mansub ikki shakl o'rniga ishlatiladi:

A) buyruq ma'nosini ifodalaydigan otlar: بله، دونك، عليك، ها، حيهل رويد،

B) o'tgan zamon ma'nosini ifodalaydigan otlar: هيهات، سرعان، شتان

38 so'zi رُوِيَدْ “ehtiyot bo'lmoq, oxista harakat qilmoq” ma'nosidagi fe'llarning buyruq shaklining otlashgan shakli deyiladi. (Qarang: Mustafo G'alayiniy “جامع الدروس العربية”, Livan, 1995, I tom. –B. 156)

39 so'zini دَعَّ fe'li bilan bir qatorda shu ma'nodagi أَثَرُكُ “qoldirib ket” fe'lga ham oid deb hisoblash mumkin, ya'ni bu ism «تَرَكُ» masdar shakli bilan tengdir. (Qarang: Mustafo G'alayiniy “جامع الدروس العربية”, Livan, 1995, I tom. –B. 156)

40 ها oti II shaxsga nisbatan qo'llanadi. Uning هاء va هَا shakllari ham mavjud. Jins va sonda o'zgarishi zarur bo'lsa هَاء

shakli asos sifatida qo'llaniladi. U muzakkar jins, birlik son deb hisoblanadi. Muannas shakli هاء tarzida, ikkilikda esa هاؤما, ko'plik son, muzakkar jinsda هاؤم, muannasda esa هاؤن tarzida o'zgaradi. (Qarang: Mustafo G'alayiniy “جامع الدروس العربية”, Livan, 1995, I tom. –B. 157)

41 asli buyruq ma'nosidagi حي fe'lidan yasalgan. Bu fe'l أَقْبِلْ – yaqinlash va عَجِّلْ – shoshil ma'nosidagi fe'llar bilan bog'liq. (Qarang: Mustafo G'alayiniy “جامع الدروس العربية”, Livan, 1995, I tom. –B. 157)

42 Eganing bosh kelishikda turishini talab qiladigan uchta ot o'tgan zamon fe'li o'rnida ishlatiladi. (Qarang: Mustafo G'alayiniy “جامع الدروس العربية”, Livan, 1995, I tom. – B. 155-158)

43 Bu turdagi fe'llar 3 guruhga ajratiladi:

1. Hozirgi-kelasi zamon va buyruq shakllarida tuslanmaydigan fe'llar: ما دام va ليس;

2. Barcha fe'llar kabi zamon va mayllarda to'liq tuslanadigan fe'llar: كان, أصبح, أمسى, أضحي, ظلّ, بات, صار;

3. O'tgan va hozirgi-kelasi zamonda tuslanadigan fe'llar: ما زال, ما انفكّ, ما فتى, ما برح

Bu fe'llar to'liq fe'l vazifasini ham bajaradi. Ammo ما زال va ما فتى, fe'llari faqat ko'makchi fe'l vazifasini bajaradi.

kan fe'li ham ليس ko'makchi fe'li kabi ot kesimga بِ ko'makchisi yordamida bog'lanishi mumkin. (Qarang: Mustafo G'alayiniy “جامع الدروس العربية”, Livan, 1995, II tom. – B. 275-284)

44 Bu fe'l kesimning o'tgan yoki kelgusi zamonga tegishlilikini bildiradi. Gap tarkibida biror qarina ishlatilayotgan bo'lsa xos xususiyatlarning doimiyligini ham ifodalashi mumkin. Yuqoridagi misolda ham Allohga xos xususiyatni bildirayotgani sabab “*Alloh biluvchi va hikmatli Zot edi*”, deb o'tgan zamon mazmunida tarjima qilish mumkin emas. (Qarang: Mustafo G'alayiniy “جامع الدروس العربية”, Livan, 1995, II tom. –B. 272)

45 To'liq fe'l o'rnida qo'llansa وَجَدَ mazmunini ifodalaydigan حصل va fe'llari o'rnida ishlatiladi. Masalan:

خَلَقَ اللَّهُ الدُّنْيَا فَكَانَ صَبَاحٌ وَكَانَ مَسَاءٌ

Alloh dunyoni tong ham, oqshom ham bo'ladigan qilib yaratdi.

46 fe'li ta'kid vazifasini bajarishi uchun o'tgan zamon shaklida qo'llanadi. Mazmunan zamonni ajratishga xizmat qilmaydi. (Qarang: Mustafafo G'alayiniy "جامع الدروس العربية", Livan, 1995, II tom. – B. 277)

47 Mohiyatni anglatuvchi olmosh, ya'ni إِنَّ va إِنْ yuklamalariga birikib keladigan III shaxs, muzakkar jinsdagi birikma yoki kishilik olmoshidir. Bu olmosh ega vazifasini bajarmaydi, balki o'zidan keyin kelayotgan gapning umumiy mohiyatini ifodalaydi.

48 Allohning xususiyatlari doimiy, ya'ni azaliy va abadiy deb hisoblanadi. Shuning uchun Alloh "biror sifat egasi edi, yoki bo'ldi, bo'lib qoldi, aylandi" deb bo'lmaydi.

49 Masdar fe'l bo'lib kelsa دَقَّ الْقَصَاُ الثُّوبُ – *bo'yovchi kiyimni siqdi*, degan gap vujudga keladi. Bu gapda الْقَصَاُ – foil (ega), الثُّوبُ – to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Kesim vazifasini bajarayotgan دَقَّ so'zining masdar shakli ega bilan izofaga kirishsa, to'ldiruvchi o'z vazifasida qolaveradi.

50 2 ratlga teng og'irlik o'lchov birligi. 1 ratl – 449.28 gr. Qarang: النعيم arabcha-o'zbekcha lug'ati. – B. 799.

51 Don mahsulotlari uchun ishlatiladigan og'irlik o'lchov birligi – 14.5 g. Shuningdek, uzunlikni ham ifodalaydi. Qarang: النعيم arabcha-o'zbekcha lug'ati. – B. 678.

52 Ma'naviy omil – bu maxsus so'z ta'sirisiz mazmunan yuzaga keladigan o'zgarishdir.

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

وَمِنْهُمَا مَنْ جَاءَهُ مِنَ الْمَلَائِكَةِ مُتَوَكِّلًا

ربح النافل من الجواهر **الاصغر** وهو النافل
 اذا كان من الجواهر من ربحه في الاموال النافلة
 او المفعول من ربحه في النقصا النافلة
 ثم ليس له **الافعال** وهو النافل من الجواهر
 المال والاسم من ربحه في النقصا الجواهر
 غلبه في النافل او غلبه في النافل من الجواهر
 الجواهر من ربحه في النافل من الجواهر

جوارات من الجواهر من ربحه في النافل
 او ربحه في النافل من الجواهر **الافعال**
 وهو النافل من ربحه في النقصا النافلة
 والافعال من ربحه في النقصا الجواهر
 من ربحه في النافل من الجواهر
 وما من ربحه في النافل من الجواهر
 من ربحه في النافل من الجواهر

بأسم العالمين حيث استأثرت في حقهم وقدرهم وقوتهم

ويعتبر ما لا يحصى من أسم العالمين في حقهم وقوتهم

وجاء في ذلك اسمهم **الاول** في اسمهم في الدلائل

السابقين واللاحقين والسابقين في الدلائل السابقة

الماضي في الحق لا يجوز ان يردوا عن حقهم وقوتهم

في حقهم في العلم **اول** اسمهم في حقهم في العلم والحق

نصبتهم **اولا** في الدلائل السابقة **الثاني** في حقهم وقوتهم

في حقهم وقوتهم **الثاني** في حقهم وقوتهم

والثاني في حقهم وقوتهم **الثاني** في حقهم وقوتهم


وهم **الاول** في حقهم وقوتهم **الثاني** في حقهم وقوتهم

وهم **الاول** في حقهم وقوتهم **الثاني** في حقهم وقوتهم


في حقهم وقوتهم **الثاني** في حقهم وقوتهم

في حقهم وقوتهم **الثاني** في حقهم وقوتهم

بعون **الاول** في حقهم وقوتهم













تسامى في الارض حتى كان في ارض مصر
 لما كان في جبل جود **فاما** لما كان في جبل
 لما بعد ما اجاب له في اوله **فاما** لما كان في اوله
 الزمان في ارض مصر **فاما** لما كان في ارض مصر
فاما لما كان في ارض مصر **فاما** لما كان في ارض مصر
 وفي ارض مصر **فاما** لما كان في ارض مصر
 وفي ارض مصر **فاما** لما كان في ارض مصر

من ارض مصر
 من ارض مصر

من ارض مصر **فاما** لما كان في ارض مصر
 من ارض مصر **فاما** لما كان في ارض مصر
 من ارض مصر **فاما** لما كان في ارض مصر
 من ارض مصر **فاما** لما كان في ارض مصر
 من ارض مصر **فاما** لما كان في ارض مصر
 من ارض مصر **فاما** لما كان في ارض مصر

من ارض مصر
 من ارض مصر

من ارض مصر
 من ارض مصر

من ارض مصر
 من ارض مصر

من ارض مصر
 من ارض مصر

والصغ والسن والواك ما لحوما لدرنك برانك ندر

الرماد يوم وانت يغفل اذ يغفل **واما** الجواهر الما عسل

ایں مجلس میں امام احمد ان مجلس میں شرکت

فما أجملها من العبد الذي انفق في السبيل ما لا يحصى

ان تعبدوا الا الله وحده لا شريك له فاعلموا ان الله عليم الغيوب

لَا تَقْعَلُ الْخِيَاةَ وَلَا تَقْعَلُ الْخِيَاةَ وَلَا تَقْعَلُ الْخِيَاةَ

الحق اني انصت اليك في ليلة القدر

92 A

السلامة في البلدان في أفريقيا في أفريقيا في أفريقيا

ابن ابي ربه اسم السمرقندي الميموني اربعة اسمها **الاول** غفر

أَوَ لَيْسَ مَعَ هَذِهِ الْبُيُوتِ الْبُيُوتُ الْآخَرُ

[illegible]

الحمد لله الذي جعل القرآن الكريم

[illegible]

بیدار سازان شش باب
و در یک یک جدول باشد و با
بسیار از این نوع هم آمده است
از سرمان نشان که در اینجا

وَبَعَثْنَا سُلَيْمَانَ عَلَيْهِ السَّلَامُ وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا

رَمَدًا إِلَى طَرَفِ الْمَدِينَةِ وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا

وَبَعَثْنَا أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا إِلَى طَرَفِ الْمَدِينَةِ

وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا

حُجْرًا وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا

إِلَى طَرَفِ الْمَدِينَةِ وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا

بِعِثْنَا الْأَمِيرَ بَعْدَ الْأَمِيرِ وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا

حُجْرًا وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا

بِعِثْنَا الْأَمِيرَ بَعْدَ الْأَمِيرِ وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا

وَبَعَثْنَا أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا إِلَى طَرَفِ الْمَدِينَةِ

حُجْرًا وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا

إِلَى طَرَفِ الْمَدِينَةِ وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا

بِعِثْنَا الْأَمِيرَ بَعْدَ الْأَمِيرِ وَوَلَّى أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا

وَبَعَثْنَا أَمْرَ الْبَلَدِ حُجْرًا إِلَى طَرَفِ الْمَدِينَةِ

اسماء بنو اسحاق ذات ميسرة واثنا عشر سالين هذا ما يسود اسماعال رصفه من فضائل ومساكنة يجلوه

فانما السعال نحو صائد لما وصا الطيب جده فاما

يَا كَافِرًا أَتَدْعُوهُ إِلَى الْإِسْلَامِ وَتَقُولُ يَا كَافِرًا أَتَدْعُوهُ إِلَى الْإِسْلَامِ

امیر مدرّس ماؤنی صاحب المیزان امیر ماؤنی لرحولہ

لَا يَصْلَحُ لَهُمْ زَيْدٌ إِلَّا فِي الصَّبْحِ وَهِيَ الْقُرْآنُ

اجله بالصحيح الجواني ريدر ما معنى ساكوا الى الصبح صح ما عني

الرجول في الضمى جوازي مدای دخل مدی الضمى و القدران

مضمون کا جملہ باب کو کسی حال کے راویوں کے ساتھ مل کر

جوہر الدلیل مرا معنی الذخیر ہے جو اسی ندری

وخل في بيت علي بن ابي طالب فاجلته بالسهم فظن قتلها

وَمِنْ سُلُوكِ الْغَالِبِينَ الْعَاثِمِينَ الْقُرْآنَ وَمَا هُم بِبَالِيهِ

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

وما تني وما انتاك سمر ابو خرمه الا هما جوارك

لَا مَوْلَاكَ زِيَادًا وَمَا تَنِي بُدًّا لَوْ مَا تَنَعَّدَا

وما دام التوفيق لم يمدد بؤ خير بالاسماء الجوا جاليل



بجوه زید بنی کز ما مارا **لله** مع الاسم

الحمد لله في الاب والابن والروح القدس

واو استمع اسم الله العظيم في يوم القيامة

بجوه زید بنی کز ما مارا **لله** مع الاسم

الحمد لله في الاب والابن والروح القدس

والله اعلم بالصواب

الحمد لله في الاب والابن والروح القدس

بجوه زید بنی کز ما مارا **لله** مع الاسم

الحمد لله في الاب والابن والروح القدس

والله اعلم بالصواب

الحمد لله في الاب والابن والروح القدس

والله اعلم بالصواب

الحمد لله في الاب والابن والروح القدس

والله اعلم بالصواب

الحمد لله في الاب والابن والروح القدس

ABDULQOHIR JURJONIY

العوامل المئة في النحو

NAHVDA YUZTA OMIL

(ARAB TILI GRAMMATIKASIGA OID QO'LLANMA)

“Toshkent islom universiteti”
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2014

Muharrir: **Sarvar Ochilov**

Muqova dizayneri: **Komron Alisherzoda**

Sahifalovchi: **Zulxumor Ulug'bekova**

Nashriyot guvohnoma raqami AI № 224. 2012 yil, 16 noyabr.
Bosishga 2014 yil 27 noyabrda ruxsat etildi.
Bichimi 60×84 1/16. Shartli b.t. 6,74. Nashr t. 6,78.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 97.
Bahosi shartnoma asosida.

«Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa
birlashmasi bosmaxonasida chop etildi.
100011. Toshkent sh. A. Qodiriy, 11.